BIR BO‘LSAK — YAGONA XALQMIZ, BIRLASHSAK — VATANMIZ!

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 152 (1213), 2024-yil 31-iyul, chorshanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

DO‘STLIK, AHILLIK E’ZOZLANGAN YURT

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan mamlakatimizda 30-iyul — Xalqlar do‘stligi kuni sifatida keng nishonlanmoqda. Do‘stlik festivali doirasida poytaxtimizda “Xalqlar do‘stligi” ko‘krak nishonini topshirishga bag‘ishlangan tantanali tadbir bo‘lib o‘tdi.

Mazkur tadbirda Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi mutasaddilari, milliy madaniy markazlar faollari, keng jamoatchilik vakillari, ijodkor ziyolilar ishtirok etdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqlar do‘stligi kuni munosabati bilan tabrigini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot kotibi Sherzod Asadov o‘qib eshittirdi.

Ta’kidlanganidek, yangi O‘zbekistonni barpo etishda millatlararo do‘stlik va ahillik, hamjihatlikni ta’minlash masalasiga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda.

Darhaqiqat, mamlakatimizda azaldan do‘stlik, birodarlik, ahillik oliy qadriyat sifatida e’zozlangan. Bugun yangilanayotgan yurtimiz rivojiga hissa qo‘shishda turli millat va elat vakillarining yagona, ahil oila farzandlaridek mehnat qilayotgani, fidoyilik ko‘rsatayotgani e’tiborga molik.

Tadbirda sana munosabati bilan bir guruh hamyurtlarimizga “Xalqlar do‘stligi” ko‘krak nishonini Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi raisi Rustam Qurbonov topshirdi.

— O‘zbekistondek mehridaryo diyor yer kurrasining hech qaysi joyida yo‘q, — dedi O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “Do‘stlik” studiyasi katta muharriri Zamira Jiyanova. — Shu zaminda o‘sib, ulg‘aydim, oila qurdim. Men o‘zimni doim o‘zbek deb his etaman. Chunki O‘zbekistonimizda millat ajratish degan tushunchaning o‘zi yo‘q. O‘zbekiston fuqarosi ekanimdan, shu tabarruk yurtning farzandi ekanimdan behad faxrlanaman. “Xalqlar do‘stligi” ko‘krak nishoni mamlakatimizda hamjihatlikni mustahkamlash borasidagi ishlarga o‘z hissamizni qo‘shishga yanada ko‘proq ruhlantiradi.

— Barcha millat va elat qatori turkman diasporasining ham huquq va manfaatlarini ta’minlashga katta e’tibor qaratilmoqda, — dedi Respublika turkman milliy madaniy markazining Surxondaryo viloyati bo‘limi rahbari Ergash Avazov. — Mamlakatimizdagi barcha milliy madaniy markazlar faoliyatiga katta e’tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatilmoqda. Milliy madaniy markazlar ishini amaliy jihatdan qo‘llab-quvvatlash uchun davlatimiz tomonidan grantlar, subsidiyalar ajratilmoqda. Bularning bari yanada samarali ishlashga undaydi.

Mukofotlanganlar mamlakatimizda oso-yishtalik, millatlararo do‘stlik va hamjihatlikni mustahkamlash borasidagi ezgu tashabbuslar uchun davlatimiz rahbariga minnatdorlik bildirdi.

Tantanali tadbirda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi Muzaffar Komilov, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Ijtimoiy rivojlanish departamenti rahbari Odil Abdurahmonov ishtirok etdi.

Nazokat USMONOVA,
O‘zA muxbiri

Mehrli siyosat

BUGUN ULAR CHORASIZ EMAS...

Prezidentimizning “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz uch yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarori bilan tanishayotib, beixtiyor hurriyatning mohiyati nima, ozod odam qanday bo‘ladi, degan savolga javob izladim. So‘ng ko‘z oldimga olis qishloqning tongi manzarasi keldi.

Quyosh nuri uzoqdagi cho‘qqilar boshini silaydi. Sayroqi to‘rg‘aylar bir maromdagi xonish bilan tongni qarshi oladi. Pishib yetilgan meva hidi dimoqqa uradi. Hali sigir sog‘ilmagan. Ochiqqan buzoq mo‘rab, hovlini boshiga ko‘taradi. Bu vaqtda qishloqda kimdir ketmonini ortmoqlab dala tomon yo‘rg‘alaydi. Boshqa birov pichan o‘rish uchun o‘roq charxlaydi. Ko‘cha boshida mol haydab chiqqan bolalar kulgisi yangraydi. Qiyomli qishlog‘ining tongi shunday otadi.

Davomi 3-betda

Dolzarb mavzu

EKSPORTDAGI MUAMMOLAR

“O‘qlangan” mahsulotlardan qachon voz kechamiz?

Dehqon yoki tadbirkor tovarini eksport qilish ortidan ichki bozordagidan ko‘ra, bir necha barobar ko‘p daromad topadi. Faqat buning uchun yo‘l-yo‘rig‘i, tartib-taomili, chet el bozori talablarini bilishi kerak. Keyingi yillarda yurtimizda bu borada yaxshigina tajriba to‘planib, mahalliy eksportchilarimiz soni 7,5 mingdan oshdi. Bir necha o‘n yillar davomida sanoqli davlatlardan tashqariga chiqa olmagan o‘zbek mahsulotlari bugungi kunga kelib, alohida brend sifatida hatto Yevropa davlatlari va okean ortiga kirib bormoqda.

Eksport uchun qancha ko‘p bozor ochilsa, hajm ham shunga yarasha o‘sib boraveradi. Birgina misol, o‘tgan yili tovar va xizmatlar eksporti hajmi 2022-yildagidan 4,5 foiz o‘sgan. Boshqa sohalarda ham doimiy o‘sish kuzatilyapti. Joriy yil boshidan buyon tarmoq va hududlar 8,7 milliard dollarlik mahsulotini chetga sotgan. Mazkur davrda meva-sabzavot va oziq-ovqat mahsulotlari eksporti 910 million dollarni tashkil qildi.

Natijalar oshib borishi tabiiy. Chunki boshqa sohalar qatori eksportda ham faqat o‘sishga erishish maqsad qilingan. Buning uchun ko‘plab loyihalar, sa’y-harakatlar amalga oshirilmoqda.

Shu yilning 17-iyul kuni davlatimiz rahbari raisligida iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlash yuzasidan birinchi yarim yillikda amalga oshirilgan ishlar va kelgusi vazifalarga bag‘ishlab o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida ham bu alohida ta’kidlandi. Yil yakunigacha reja qilingan eksportni ta’minlash uchun birinchi galda qayta ishlangan meva-sabzavot eksportini keskin ko‘paytirish kerakligi ko‘rsatib o‘tildi.

Davomi 4-betda

Parvoz

QIZLARIMIZNING QADRI BALAND, YUZI YORUG‘ BO‘LAVERSIN!

Odamlar bilan gurunglashsangiz, mahalladagi jamiki yangiliklardan boxabar etishadi. Kim umraga borib keldi, kim yangi uy solyapti, kim mashina oldi... Darvoqe, keyingi paytda qishloqda ham o‘qimishli, yaxshi kelin topish kun mavzusiga aylanibdi. Bo‘y yetgan o‘g‘li borki, “Tanishlarning bari o‘qigan, yaxshi qizlar bo‘lsa, ayting”, deydi. Orzuga ayb yo‘q, biroq maktabni zo‘rg‘a tamomlab, muhojirlikda ishlashga ketgan o‘g‘illariga ham loaqal hamshira kelin olishni istayapti odamlar. Qolganlarni qo‘yavering.

Albatta, institutda o‘qiyotgan qiz bo‘lishi kerak. 1-kursmi, 2-kursmi, bo‘laveradi, o‘zlari o‘qitib oladi. Davlatnikidami, xususiy oliygohdami, bungayam bir qiziqib qo‘yishadi. Davlat oliygohlarida o‘qiyotgan bo‘lsa, berdi xudo, xususiyda bo‘lsa ham yomon emas. Nima bo‘lganda ham o‘qiyapti ekan, bitirib ishlaydi-da baribir, diplomi davlatniki bilan bir-ku, deyishadi.

Bu gaplarning baridan quvonib ketasan. Xayriyat, biror yerda o‘qigan, ayniqsa, oliy ma’lumotli qizlarning “qiymati” yildan yilga oshib boryapti. “IELTS”i bor qizlarning uyidan sovchilarning keti uzilmay, onalari qayoqqa qochishini bilmay qolganmish. Bugun oliy ma’lumotli qizlar oilani muqaddas bilishi, farzand tarbiyasida ham to‘g‘ri yo‘l tutishini davrning o‘zi ko‘rsatib qo‘ydi.

Davomi 5-betda

SOKIN DARYONING JO‘SHQIN OQIMI

6

“YANGI O‘ZBEKISTON” MASSIVI

YASHASH UCHUN QULAY MANZIL

Bunyodkorlik

Berdiqul ota Navoiy viloyatining olis Zarafshon shahrida uzoq yillar konchilik sohasida mehnat qildi. Nafaqaga chiqqach esa farzandlari qo‘ymay viloyat markaziga ko‘chirib olib ketdi. Bu hududga o‘zgacha mehr qo‘ygan ota boshida bir oz qiynalsa-da, keyinchalik ko‘nikdi. Ammo ko‘p ajib xotiralari shu shahar bilan bog‘langan. Biroq arzirli bir bahona yoki sabab bo‘lmagani uchun uch-to‘rt yil shaharga kelolmadi. Yaqinda birga ishlagan hamkasbi nevara to‘yiga aytganida, hech ikkilanmay yo‘lga tushdi. Bahonada birga ishlagan qadrdonlarini ham ko‘rib qaytadi.

Davomi 2-betda

Ko‘p asrlar davomida markazi hozirgi O‘zbekiston zamini bo‘lgan Buyuk ipak yo‘lida millatlararo totuvlik va dinlararo bag‘rikenglik hukm surgan. Zero, o‘sha davrlarda turli millat va din vakillarining tinch-totuv yashagani buning isbotidir.

YANGI O‘ZBEKISTON

2024-yil 31-iyul, 152-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

Munosabat

QALB KENGLIGI VA SAXIYLIGI

Jamiyatimizni mana shunday yuksak insoniy rishtalar mustahkamlab turibdi

Do‘stlik insoniyat tarixida turli davlatlar, xalqlar va millat vakillarini eng ko‘p yaqinlashtirgan. Chunki u orqali kelishuvlarga erishish, dunyoni yanada yaxshiroq maskanga aylantirishga intilayotgan odamlar uchun qulay shart-sharoit yaratish mumkin.

Viktor PAK,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

Xalqaro do‘stlik kuni tashabbusi UNESCO tomonidan taklif qilingan. Keyinroq BMT Bosh Assambleyasi tinchlik madaniyatini mavjud muammolarni hal qilish uchun mojarolarning asosiy sabablarini bartaraf etish orqali ularning oldini olishga qaratilgan qadriyatlar va qarashlar sifatida aniqlab berdi. Assambleya, shuningdek, bolalarga singdirilishi kerak bo‘lgan tinchlik madaniyatini targ‘ib qilishda ta’limning rolini ham tan oldi. Agar bolalar tinchlik va hamjihatlikda yashashni o‘rgansa, bu xalqaro tinchlik va hamkorlikni mustahkamlashga yordam beradi.

Xullas, BMT Bosh Assambleyasi 30-iyulni Xalqaro do‘stlik kuni, deb e’lon qildi. Negaki xalqlar, mamlakatlar, madaniyatlar va shaxslar o‘rtasidagi do‘stlik tinchlikni ta’minlashga qaratilgan sa’y-harakatlarni ilhomlantirishi va madaniy xilma-xillikni hurmat qiladigan jamiyatlar o‘rtasida qulay munosabatlarni o‘rnatish imkoniyatini yaratadi.

Ko‘p asrlar davomida markazi hozirgi O‘zbekiston zamini bo‘lgan Buyuk ipak yo‘lida millatlararo totuvlik va dinlararo bag‘rikenglik hukm surgan. Zero, o‘sha davrlarda turli millat va din vakillarining tinch-totuv yashagani buning isbotidir.

Bugunga qadar mamlakatimizda turli millat va elat vakillari to‘liq tenglik va o‘zaro bir-birini tushunish sharoitida yashamoqda. Vatan tinchligi va taraqqiyoti, aholi farovonligi yo‘lida muvaffaqiyatli mehnat qilib, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotida faol ishtirok etmoqda.

O‘zimdan qiyos. Shu vatanda tug‘ilib, mana shu jamiyat mehri, e’tibori bilan voyaga yetdim. Turmush tarzim, tafakkurimga o‘zbek qadriyatlari shu qadar yaqinki, biror fikr aytmoqchi bo‘lsam, avval o‘zbek tilida o‘ylab, keyin uni tarjima qilib gapiraman. Tabiiyki, hayotimning eng shirin bolalik xotiralari ham mana shu ahil va inoq, hamjihat jamiyatimiz bilan bog‘liq.

Bunday natija o‘z-o‘zidan bo‘lmaydi, albatta. Bunga ulkan sa’y-harakatlar evaziga erishildi. Keyingi yillardagi eng katta boyligimiz haqida so‘rashsa, men, shubhasiz, tinchlik va barqarorlik, umumiy uyimizdagi millatlararo va fuqarolar o‘rtasidagi hamjihatlikni aytgan bo‘lardim.

Prezidentimiz taklifiga binoan jamiyatda millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik muhitini mustahkamlash bo‘yicha davlat siyosatini ta’minlash uchun yurtimizda har yili 30-iyul Xalqlar do‘stligi kuni sifatida nishonlanadi. Ushbu tashabbus BMT Bosh Assambleyasi rezolyutsiyasiga muvofiq butun dunyoda ushbu sana har yili Xalqaro do‘stlik kuni sifatida keng nishonlanishi hisobga olingan holda ilgari surilgan. Mamlakatimizdagi millatlararo totuvlik va bag‘rikenglik jahon miqyosida tan olinib, bu boradagi tajribasi nufuzli xalqaro konferensiyalarda yuqori baholanmoqda.

O‘zbekiston aholisi, avvalo, shaxsiy manfaatlarini emas, balki oilasi, qarindoshlari, yaqinlari hamda qo‘shnilarining salomatligi va farovonligiga g‘amxo‘rlikni birinchi o‘ringa qo‘yadi. Bu eng yuksak ma’naviy qadriyatdir. Xalqimiz hech qachon o‘zini boshqalardan ustun qo‘ymaydi, barcha millatlar, boshqa konfessiyalar vakillariga hurmat ko‘rsatadi.

O‘zbek mentalitetining bu xususiyati asrlar davomida shakllangan. U davrlarda turli o‘ziga xos madaniyatlar va sivilizatsiyalar vakillari O‘zbekistonning ko‘hna va noz-ne’matlarga boy zaminida tinch-totuv, ahil-inoq yashagan. Xuddi shu jihat mehr-oqibat, tinchlik, ochiqlik, qalb kengligi va saxiyligi bilan ajralib turuvchi mentalitetni yuzaga keltirishga hissa qo‘shgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Xalqlar do‘stligi kuni munosabati bilan yo‘llagan tabrigida jamiyatimizdagi bag‘rikenglik xalqaro maydonda keng e’tirof etilganini alohida ta’kidladi. Darhaqiqat, bugun vatanimizda 130 dan ortiq millat va elat hamda 16 ta diniy konfessiya vakillari tinch-totuv, ahil-inoq, hamjihat bo‘lib yashamoqda. 157 ta milliy madaniy markaz va 38 ta do‘stlik jamiyati faoliyat yuritmoqda.

Mamlakatimizdagi ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoni o‘zbek, qoraqalpoq, rus, tojik, qozoq, qirg‘iz va turkman tillarida olib borilmoqda. Qardosh tilli maktablarda o‘qiyotgan farzandlarimiz davlat hisobidan darslik va badiiy adabiyotlar bilan ta’minlanmoqda. Qoraqalpog‘iston Respublikasi hamda viloyatlarda tashkil etilgan “Do‘stlik uylari” faoliyati har taraflama qo‘llab-quvvatlanyapti. Xususan, Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondi tomonidan ushbu maqsad uchun zarur mablag‘ yo‘naltirilyapti, subsidiya va grantlar ajratilmoqda.

Davlatimiz rahbari butun mamlakat bo‘ylab hafta davomida o‘tkaziladigan Xalqlar do‘stligi festivallari xalqimizning hamjihatligi va birdamligini, shuningdek, butun mintaqada tinchlik va osoyishtalik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni yanada mustahkamlashga xizmat qilishini alohida qayd etdi.

Shukuh

BAG‘RIKENG ODAMLAR O‘LKASI

Vatanimizda 130 dan ortiq millat va elat hamda 16 ta diniy konfessiya vakillari tinch-totuv, ahil-inoq, hamjihat bo‘lib yashamoqda. 157 ta milliy madaniy markaz va 38 ta do‘stlik jamiyati faoliyat yuritadi. Ushbu tarixiy makonda azaldan qozoq millati vakillari ham boshqa xalqlar qatori bir jonu bir tan bo‘lib, do‘stlik va ishonch rishtalarini mustahkam bog‘lab umrguzaronlik qilib keladi.

Serikbay USENOV,
O‘zbekiston qozoq milliy madaniy markazi raisi,
Yozuvchilar uyushmasi a’zosi,
“Mehnat shuhrati” ordeni sohibi

Ular ko‘pmillatli mamlakatimizning siyosiy barqarorligi, iqtisodiy rivojlanishi va ijtimoiy taraqqiyoti yo‘lida faol ishtirok etayotir. Ayni paytda jonajon vatanimizning har tomonlama yuksalishiga baholi qudrat hissa qo‘shyapti.

Millatimiz vakillarining mamlakat iqtisodiy salohiyatini yuksaltirish, vatan obodligi, turmush farovonligini ta’minlash, xalqlar do‘stligini mustahkamlash borasidagi xizmatlari munosib baholanmoqda. Kecha markazimiz faoli Aziza Duysenova hamda O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasining qozoq tilidagi “Didar” dasturi muharriri Zamira Jiyenbayeva “Xalqlar do‘stligi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi.

Markazimiz faollari 29-iyul kuni “Yangi O‘zbekiston” bog‘idagi tadbirlarda, milliy madaniy markazlar faoliyati to‘g‘risida hikoya qiluvchi ko‘rgazmada, turli millat vakillarining hayoti va ijodiga bag‘ishlangan videoroliklar hamda hujjatli filmlar tanlovi g‘oliblarini taqdirlash marosimida ishtirok etdi. Do‘stlik festivali doirasida qozoq mutafakkiri Abay Qo‘nonboyev xotirasiga hurmat bajo keltirib, haykali poyiga gulchambar qo‘yildi. “Xalqlar do‘stligi” maydonida bo‘lib o‘tgan bayram saylida qozoq havaskor jamoalari ham san’atsevarlar qalbiga zavq ulashdi. Bunday tadbirlar ko‘p millatli xalq vakili bo‘lgan bizdek insonlarni behad quvontiradi. Zero, yurtimizdagi imkoniyatlar sabab farzandlarimizni milliy madaniyatlarga hurmat ruhida tarbiyalamoqdamiz.

Ayni paytda qardosh o‘zbek va qozoq xalqlari o‘rtasidagi abadiy do‘stlik va izchil hamkorlikning yanada mustahkamlanishiga, xalqlarimiz o‘rtasidagi adabiy, madaniy-ma’rifiy aloqalarning yanada ravnaq topishiga hissamizni qo‘shaveramiz. Bu orqali yurtimizda siyosiy barqarorlik va bag‘rikenglik, millatlararo totuvlik va hamjihatlikning tobora mustahkamlanib, uyg‘unlashib borishiga xizmat qilamiz.

Biz mamlakat rahbariyati ko‘rsatayotgan g‘amxo‘rlik va e’tibor uchun chuqur minnatdorlik izhor etamiz. Bunday ishonch va imkoniyatdan to‘g‘ri foydalanib, turfa madaniyat va qadriyatlar gullab-yashnayotgan mamlakatimizda faoliyatimizni yanada yuksak darajaga ko‘taramiz. Zero, vatanimiz ravnaqiga munosib hissa qo‘shishni muqaddas burchimiz, deb bilamiz.

Dil izhori

ENG KATTA SHIOR

TINCHLIK, OSOYISHTALIK VA BIRDAMLIKDIR

Rahmatulla JABBOROV,
Respublika qirg‘iz milliy madaniy markazi raisi

O‘zbekistondagi islohotlar xalqaro maydonda ko‘plab e’tiroflarga sazovor bo‘lmoqda. Bunday yutuqlar sabablaridan biri mamlakatimizda birdamlik, millatlararo totuvlik va bag‘rikenglik muhiti qaror topganida, desak, mubolag‘a emas.

Bugun dunyoda sodir bo‘layotgan ziddiyatlar, ichki nizolar, xalqlarning an’ana va qadriyatlariga tajovuz oshib boryapti. Shu orqali inson erkinligiga raxna solinyapti. Ana shunday murakkab davrda O‘zbekistonda istiqomat qilayotgan turli millat vakillarining tinch-totuv hayot kechirishi uchun barcha imkoniyat yaratilgan. Bu, o‘z navbatida, jamiyatda o‘zaro hurmat va taraqqiyotni ta’minlaydi.

Prezidentimizning 30-iyul — mamlakatimizda Xalqlar do‘stligi kuni munosabati bilan xalqimizga yo‘llagan tabrigida yangi O‘zbekistonni barpo etish maqsadida boshlangan islohotlar jarayonida jamiyatimizda millatlararo totuvlik va bag‘rikenglik muhitini yanada mustahkamlashni eng ustuvor vazifalardan biri etib belgilash zarurligi alohida ta’kidlandi.

Mening millatim qirg‘iz. O‘zbekistonda tug‘ilib, unib-o‘sdim. Tom ma’noda aytadigan bo‘lsam, bu yurt mening Ona Vatanim. O‘zbekiston qirg‘iz milliy madaniy markazi rahbari sifatida yaxshi bilamanki, o‘zbek va qirg‘iz madaniyati, an’ana va qadriyatlari bir bo‘lgan, yaqin qo‘shnichilikka ega xalqlardir. Oqsoqollardan qolgan bir gap bor: “Ellarni ellarga qo‘shadigan san’at, madaniyatdir”.

Bugun o‘zbek va qirg‘iz xalqlari o‘rtasida yaxshi qo‘shnichilik siyosati bilan birga, madaniy jihatdan ham keng qamrovli hamkorlik yo‘lga qo‘yilmoqda. Yaqinda Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov davlat tashrifi bilan O‘zbekistonga kelgani va tashrif davomi o‘laroq 18-22-iyul kunlari mamlakatimizda Qirg‘iziston madaniyati kunlari bo‘lib o‘tgani fikrimiz tasdig‘idir.

Ayni paytda O‘zbekistonda 300 mingdan ziyod qirg‘iz istiqomat qiladi. Bu raqam kichik emas. Muayyan muddat ba’zi insonlar yaqinlari bilan bordi-keldi qilolmagan holatlarga guvoh bo‘lganmiz. Ming shukr bo‘lsin, ikki davlat fuqarolarining bir-biri bilan aloqalari qayta tiklandi. O‘zbek va qirg‘iz xalqlari — bir daraxtning tomirlari. Ularni hech qachon bir-biridan ajratib bo‘lmaydi. Bir daryodan suv ichamiz.

O‘zbekistonning eng katta shiori tinchlik, osoyishtalik, birdamlikdir. 130 dan ortiq millat va elat vakillari bir oila farzandlaridek yashayapti. Biz bugungi islohotlarni qo‘llab-quvvatlaymiz. Ayni damda mazkur yangilanish jarayoni ishtirokchisi ekanimizdan faxrlanamiz.

Bunyodkorlik

Boshlanishi 1-betda

— Zarafshonga bormaganimga ham ancha vaqt bo‘ldi, — dedi gap orasida otaxon yo‘lda taksichi yigit bilan suhbatlasharkan.

— Men kuniga ikki marta borib kelaman, ishim shu, — deya kulib qo‘ydi haydovchi.

— Tirikchilikning aybi yo‘q, o‘g‘lim. Muhimi, halol mehnat qilish kerak.

Berdiqul ota Zarafshon shahriga kirishda haydovchidan mashinani to‘xtatishni so‘radi. Mashinadan tushgan otaxon atrofga bir oz boqib turib, hayratini yashirolmadi.

— Juda o‘zgarib ketibdi.

— Anchadan buyon kelmaganingiz ko‘rinib turibdi. Hali shahar ichini ko‘rsangiz, hayratingiz yanada oshishi aniq, — dedi haydovchi yigit.

Albatta, otaxonning hayrati bejiz emas. Mamlakatimizdagi yangilanishlar shiddati olisu yaqin manzillarga ham yangicha qiyofa baxsh etayotir. Biri biridan shinam imoratlar, ravon yo‘llar, madaniy-maishiy majmualar, zamonaviy inshootlar — bularning barchasidan yurtimizni obod qilish, aholi turmush sharoitini zamon talablariga moslashtirish kabi oliy maqsadlar ko‘zlangan.

Navoiy viloyatida o‘tgan qisqa davrda shaharu qishloqlar, chekka ovul va qo‘rg‘onlarda katta hajmdagi qurilish, bunyodkorlik hamda obodonlashtirish ishlari qilindi. Xususan, sahro bag‘ridagi mo‘jiza, deya ta’riflanuvchi Zarafshon shahri yo‘llari ravonlashib, tungi yoritish chiroqlari o‘rnatildi, yo‘l chetlariga manzarali gul va daraxt ko‘chatlari ekildi.

Dastlab tashkil etilishida 50 ming kishi yashashiga mo‘ljallangan Zarafshon shahrida oxirgi 20 yilda aholi soni qariyb 2 barobar ortdi. Bu esa turar joy binolari va infratuzilma obyektlariga talabni keskin oshirdi.

“YANGI O‘ZBEKISTON” MASSIVI

YASHASH UCHUN QULAY MANZIL

Davlatimiz rahbarining Navoiy viloyatiga tashrifi chog‘ida faollarning Zarafshon shahrini kengaytirish va markaziy poliklinika uchun yangi bino qurish taklifi ma’qullangan edi. O‘tgan qisqa muddat ichida shaharda 7-12 qavatli turar joy binolari qad rostladi va sanoatchilar shahri kun sayin kengayib bormoqda. Bugungi kunda shahardagi “Yangi O‘zbekiston” massivida 100 ga yaqin ko‘p qavatli turar joy qurilayotgan bo‘lib, 2025-yilga qadar ular sonini 180 taga yetkazish rejalashtirilgan.

— Bu shaharda ancha vaqtdan buyon yashayman. Hozir shaharni piyoda kezsangiz, yo‘llar ravonligidan, atrof obodligidan ko‘zingiz quvnaydi. Avvallari bu yo‘llar abgor, atrof esa taqir cho‘ldek edi. Hozir esa yangi ko‘p qavatli uylar qad rostlamoqda, shaharning avvalgi va ayni vaqtdagi holati katta farq qiladi, — deydi mehnat faxriysi Sa’dullo Abdullayev.

Navoiy viloyatidagi “Yangi O‘zbekiston” massivlarida 2024-yilda 830 xonadonli 17 ta ko‘p qavatli uy-joy qurildi, 5 ta ijtimoiy soha obyekti foydalanishga topshirildi. Karmana va Qiziltepa tumanlaridagi massivlarda 4,7 kilometr ichimlik suv, 3,1 kilometr oqova suv, 22,2 kilometr elektr, 4,3 kilometr tabiiy gaz, 3,8 kilometr issiqlik tarmoqlari tortilib, 3,6 kilometr yo‘l qurildi. Zarafshon shahridagi massivda bugungi kunda 10 kilometr ichimlik va oqova suv, 19,5 kilometr elektr, 9 kilometr tabiiy gaz va 17 kilometr issiqlik tarmoqlari tortilmoqda.

Karmana tumanining Do‘stlik mahallasida 21 gektar maydonda barpo etilgan “Yangi O‘zbekiston” massivida 18 ta ko‘p qavatli uy qad rostladi. Bu massivlarda ko‘p qavatli uylar yoniga maktab, bog‘cha, poliklinika, savdo nuqtalari kompleks tartibda qurilayotgani aholiga manzur bo‘lmoqda.

— Ushbu yangi massivning belgilangan standartlar asosida shaharsozlik normalariga amal qilingan holda mustahkam va sifatli qurilishi nazorat qilib borildi. Binolar isitish moslamalariga ulangan, gaz, suv, elektr bilan ta’minlangan va yangi xonadonlar aholiga zamonaviy dizaynda, to‘la-to‘kis ta’mirlangan holatda topshirildi. Bu ko‘p qavatli uylardagi xonadonlar ipoteka krediti asosida ham berilishi aholiga qulayliklar yaratdi, — deydi Karmana tumani hokimi o‘rinbosari Shohruh Boltayev.

Qiziltepa tumanining Malikobod mahallasida barpo etilgan “Yangi O‘zbekiston” massivi ham bugun hududga o‘zgacha qiyofa bermoqda. Avvallari qishloq joylardagi mahallalarda ko‘p qavatli uy quriladi, desa kishiga ertakdek tuyulardi. Hozir esa bunday hududlarda butun bir shaharcha bunyod etilmoqda. Tumandagi Malikobod mahallasi ayni vaqtda o‘z nomiga xos bo‘lib, obod manzillardan biriga aylanmoqda. Mahalladagi yangi massivda 52 ta ko‘p qavatli uy, maktab, maktabgacha ta’lim tashkilotlari, oilaviy poliklinika, savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish obyektlari, istirohat bog‘lari qurilmoqda. Ichimlik suv, elektr, tabiiy gaz, issiqlik va kanalizatsiya tarmoqlari tortilib, ichki yo‘llar ta’mirlanmoqda.

— 2024-yilda 1-bosqichda 200 xonadonga mo‘ljallangan 8 ta 5 qavatli uy to‘liq foydalanishga topshirilgan. Subsidiya, ipoteka krediti asosida talabgorlarga sotilmoqda. 2024-2025-yillar davomida 2-bosqichda 252 ta xonadonga mo‘ljallangan 7 ta 9 qavatli uy qurilishi ko‘zda tutilgan. Bugungi kunda qurilish oldi loyiha-smeta hujjatlari rasmiylashtirilmoqda, — deydi Qiziltepa tumani hokimi o‘rinbosari Hasan Aliyev.

Muxtasar aytganda, bugungi kunda yurtimizda bunyodkorliklar ko‘lami kundan kunga kengayib bormoqda. Ushbu xayrli ishlar olis hududlarni ham qamrab olayotgani esa aholining farovon yashashi uchun yanada ko‘p qulayliklar yaratmoqda. Pirovard maqsad ham shu, aslida. Bugun bir hududga uzoq vaqt bormagan kishi bahonayu sabab o‘sha yerga borib qolsa, Berdiqul ota kabi hayratlanishi tabiiy. Manzillar kundan kunga obod, yangicha qiyofa kasb etmoqda. Bu esa ana shunday hayratlarga sabab bo‘lmoqda.

G‘olib ABDUSALOMOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Mehrli siyosat

BUGUN ULAR CHORASIZ EMAS...

Sardor TOLLIBOYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Azonlab Otabek Choriyevning darvozasi taqillaydi. Uy egasi kelgan kishining kimligini oldindan taxmin qiladi. Jussasining bor og‘irini qo‘ltiqtayog‘iga tashlab, darvoza tomon odimlaydi. Taxmini to‘g‘ri chiqdi: kechagi odam buyurtmasini olib ketishga kelibdi. Otabek aka kecha tayyorlangan libosni egasiga topshirib, hovlisi burchagidagi ishxonasi tomon yuradi. Borib, buyurtma kiyim tikib o‘tirgan ayoli va atrofida chir aylanib, sho‘x va jarangdor ovozi bilan kecha yodlagan she’rini aytib berayotgan qiziga deraza osha bir muddat termiladi. U yashash shukuhini, kelajakka ishonchni shu mehnati va qizi ortidan ko‘radi.

— Umr yo‘li odam istaganidek doim ham bir tekis, ravon bo‘lmas ekan. Maktabda a’lo bahoga o‘qirdim. O‘n ikki yoshda otamdan ayrildim. Onam va olti uka-singlim bilan hayotning achchig‘ini ham tatishga to‘g‘ri keldi. Savdoga qiziqishim tufayli oldi-sotdi bilan shug‘ullanardim, — deydi urgutlik Otabek Choriyev. — Birin-ketin singillarimni uzatib, ukalarimni uyli-joyli qildim. O‘zim ham uy-joy qurdim. Taqdir taqozosi bilan 2018-yili oyog‘imdan o‘simta chiqib, to‘shakka yotib qoldim. Ahvol shu darajaga yetdi, oyog‘imdan ayrilib yashashga umidim deyarli so‘ndi.

Ko‘chadan rizqi qiyilgan oilaning yagona boquvchisi uchun bunday qiyin vaziyatdan chiqib ketish oson bo‘lmadi. Bu haqda bir oz keyin to‘xtalamiz.

* * *

Mamlakat taraqqiyoti — jamiyatning birdamligiga bog‘liq hodisa. **Shu bois, xalqimizni “Bir bo‘lsak — yagona xalqmiz, birlashsak — Vatanmiz!” degan bosh g‘oya atrofida jamlash siyosati yuritilmoqda.** Inson qadri ulug‘lanishi, huquq va manfaatlari himoya qilinishi ijtimoiy davlatning asosiy tamoyilidir. Bugun mamlakatimizda xuddi shunday mehrli siyosat ustuvor. Yangilanish sa’y-harakatlari haqli ravishda xalqparvar jamiyat qurish yo‘lidagi tarixiy ishlar, deya e’tirof etilmoqda.

Ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda nogironligi bo‘lgan 989 ming shaxs bor. Bu jami aholining 2,6 foiziga to‘g‘ri keladi. Endi o‘z-o‘zidan savol tug‘iladi: bu insonlarning yashash tarzi, turmush sharoiti qanday? Ular bugun jamiyatning to‘laqonli a’zosiga, yashash tarzini belgilab, imkoniyatini ishga sola olyaptimi?

Inson ba’zan o‘tib bo‘lmas dovonlar bilan yuzlashsa, ba’zan adog‘i yo‘q sinovlar qarshisida ojiz qoladi. Bunday vaziyatda inson qadri yuksalgan joylarga talpinish hissi har kimda tug‘iladi. Qadimdan bugungacha davlat taraqqiyotidagi ma’naviy va iqtisodiy yuksalishning asosiy belgilari sifatida teng huquqlilik, umummanfaatiga xizmat qiladigan qonunlar ustuvorligi, moddiy va ma’naviy yetuklik muhim o‘rin tutib kelgan.

Bugun dunyo murakkab siyosiy inqiroz yoqasida. Bu inson kamolotiga xalal beradigan omillar keltirib chiqarayotir. Shunday qaltis pallada davlatlar oldida ijtimoiy tenglikni barqaror saqlashdek muhim gumanitar vazifa turibdi.

Xo‘sh, “ijtimoiy tenglik” tushunchasi amalda ham barcha joyda qaror topmoqdami? Dadil aytish mumkin: yangi O‘zbekiston siyosatida hech bir fuqaro e’tibordan chetda qolmayapti. Bu g‘amxo‘rlik hayotda ifodasini topmoqda. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda “Yangi O‘zbekiston — ijtimoiy davlat” tamoyili belgilangani bejiz emas. Ijtimoiy davlat mehvarida inson qadrini ulug‘lash g‘oyasi turadi. Bu g‘oya zamirida esa har bir fuqaroning haq-huquqlari va qonuniy erkinligini kafolatlash, sifatli ta’lim va tibbiy xizmatlardan foydalanishi uchun sharoit yaratish, bolalar va xotin-qizlar, qariyalar va nogironligi bo‘lganlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, uy-joy va munosib kasb-kor bilan ta’minlash yotadi.

> O‘zbekistonda nogironligi bo‘lgan 989 ming shaxs bor. Bu jami aholining 2,6 foiziga to‘g‘ri keladi. Endi o‘z-o‘zidan savol tug‘iladi: bu insonlarning yashash tarzi, turmush sharoiti qanday? Ular bugun jamiyatning to‘laqonli a’zosiga, yashash tarzini belgilab, imkoniyatini ishga sola olyaptimi?

Bugungi global davrda fan-texnika takomillashuvi insoniyat mehnatini yengillashtirish bilan birga davlatlarni yangi muammolar bilan yuzlashtirmoqda. Aksariyat jamiyatlar ishsizlik atalmish sirtmoqqa tushayotgani, alaloqibat iqtisodiy inqiroz bilan yuzlashayotgani davlatlar oldiga muhim vazifalar qo‘ymoqda. Bunday vaziyatda “hunari yo‘q kishidan bigizi bor yamoqchi yaxshi”, degan maqolning ahamiyati ortsa ortadiki, aslo kamaymaydi. Kasb farovon turmush kafolatidir.

Jismoniy jihatdan sog‘lom, hunarli kishilar jamiyatning faol a’zosi bo‘lishi, iqtisodiy jihatdan o‘zini tiklab olishi ancha oson kechadi. Ammo imkoniyati cheklanganlarda ishsizlik masalasini hal etish juda murakkab. Ancha yillar oldin qo‘lida hunari bor imkoniyati cheklanganlarning ishlashini ko‘z oldimizga keltirish qiyin masala edi. Ular butun umr odamlarning achingannamo nigohiga qarshi kurashib yashardi.

Davlat ajratgan nafaqa puli faqat kun ko‘rishga yetardi. Mana shunday og‘ir sharoitda nogironligi borlar farzandlari istiqbolini o‘ylardi. Aksiga olib, xayollari nuqul ishonchsizlik sari yetaklardi. Bunday o‘ydagi odam qanday qilib bolalarini kelajakka ishontirishi, yaxshi hayot haqida so‘z ochishi, orzu qilishi mumkin?!

Bu gaplarni bugun osongina aytyapmiz. Ammo qanchalab odam mana shunday kuchli ruhiy bosim ostida yashaganini bilamizmi? Prezidentimiz **“Ijtimoiy himoya faqat pul berish bilan cheklanib qolmoqda. Aslida, bu tizimning vazifasi aholini og‘ir ahvoldan chiqarish va jamiyatda o‘z o‘rnini egallashi uchun ko‘mak berishdan iborat bo‘lishi kerak”,** deya tashabbus bildirdi. Shu bir gap ko‘plab insonlarning, xususan, imkoniyati cheklanganlarning turmushiga fayz kiritish uchun muhim qadam bo‘ldi.

* * *

O‘tgan yili Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etilgani ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam yukini ancha yengil qilib, qaytadan hayot boshlashiga ko‘mak bermoqda.

— Avval kam ta’minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilish deganda faqat ijtimoiy nafaqa bilan ta’minlash tushunilgan. Endi biz bandlik va ijtimoiy himoya dasturlarini integratsiya qilish orqali ehtiyojmandlarni og‘ir ijtimoiy ahvoldan chiqarish choralarini ko‘ryapmiz, — deydi Ijtimoiy himoya milliy agentligi direktori Mansurbek Olloyorov. — Jumladan, “kam ta’minlangan” deb e’tirof etilgan oilalarning mehnatga layoqatli ishsiz a’zolari bandligini ta’minlash maqsadida “mahalla yettiligi” tomonidan shaxsning ishsizlik sabablari va ishlash imkoniyati o‘rganib borilmoqda. Ular imkoniyatidan kelib chiqib, har bir ishsiz fuqaro uchun individual dasturlar ishlab chiqilmoqda. Ushbu dastur asosida fuqarolar bandligini ta’minlash choralari ko‘rilmoqda. Shuningdek, 2021-yilda ratifikatsiya qilingan “Nogironlar huquqlari to‘g‘risida”gi konvensiya qoidalari ijrosini ta’minlash maqsadida mamlakatda nogironligi bo‘lgan shaxslar bilan ishlash bo‘yicha butkul yangi tizim joriy qilinmoqda. Xususan, nogironlik belgilangan vaqtdan boshlab, bir vaqtning o‘zida muhtoj shaxslarga ijtimoiy, psixologik, tibbiy reabilitatsiya, protez-ortopediya mahsulotlari bilan ta’minlash yo‘nalishida aniq vazifalar belgilanadi. Mutaxassislarimiz hududlarda bu bo‘yicha ishlamoqda.

> **Ikkita tikuv mashinasi bilan nima ham o‘zgarardi, deysizmi? Aksariyat hollarda jamiyatda uchraydigan ayrim muammolar to‘g‘ri va o‘z vaqtida yo‘naltirilmagan yondashuv ortidan kelib chiqadi. Otabek aka kabilarning turmush tarzi yaxshilanishida o‘z vaqtida to‘g‘ri yo‘nalish belgilab olingani muhim.**

> **Bir qaraganda odam baxtli bo‘lishi uchun u qadar ko‘p narsa kerak emasdek tuyuladi. Sababi, har bir odamga hayoti davomida boshiga tushgan sinovlarda yonida yelkadosh bo‘ladigan tizim yaratilsa va u odamlarga umid bera olsa, jamiyatni katta bir ishonch belbog‘dek birlashtirib turadi.**

Yuqorida Otabek Choriyevning hayot yo‘li haqida gap boshlagan edik. Yoshligidan libos tikishga layoqatli bu insonning turmushi izga tushishi uchun Ijtimoiy himoya agentligi qo‘llab-quvvatlovi tufayli tuman hokimligidan ikkita tikuv mashinasi berildi.

— Qishloq odamlari kiyim tiktirish uchun kun ora kelib turadi. Ko‘ylakni turiga qarab har xil narxda tikamiz, — deydi qahramonimiz. — Bugungacha yuzlab shogird tayyorladim. Qisqasi, elning koriga yarab turibmiz.

Ikkita tikuv mashinasi bilan nima ham o‘zgarardi, deysizmi? Aksariyat hollarda jamiyatda uchraydigan ayrim muammolar to‘g‘ri va o‘z vaqtida yo‘naltirilmagan yondashuv ortidan kelib chiqadi. Otabek aka kabilarning turmush tarzi yaxshilanishida o‘z vaqtida to‘g‘ri yo‘nalish belgilab olingani muhim.

Bu dunyoda bir insonga ko‘mak berish, kasb o‘rgatish, oyoqqa turg‘azish qanday qiyin yumush bo‘lsa, Otabek aka hozirgi holatida ham ko‘plab shogirdlar chiqarayotgani quvonarli. Gap orasida hovlisidagi mevali daraxtlar turini sanay ketdi. Aytishicha, hovlisida yuzga yaqin daraxt turi bo‘lib, ishdan bo‘sh vaqtlari ularning parvarishi bilan shug‘ullanadi.

— Bu yil hosil mo‘l. Nasib qilsa, bozorga olib chiqamiz. Ba’zan xaridorlar uydan ham olib ketishadi, — deydi Otabek aka tabassum bilan.

* * *

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida nogironligi bo‘lgan ehtiyojmand shaxslarni sifatli va zamonaviy protez-ortopediya buyumlari bilan ta’minlash darajasini 100 foizga yetkazish vazifasi belgilangani ham ushbu insonlarning hayotiga o‘ziga xos shukuh ulashdi.

— Bir necha yillar oldin baxtsiz tasodif tufayli bir oyog‘imdan ayrildim. Avvaliga protez masalasida yordam so‘rab bir necha tashkilotga murojaat qildim. Sababi uni har yili almashtirishni cho‘ntak ko‘tarmasdi. Boz ustiga qo‘yilgan protezning oyoqqa mos tushishi yana bir masala edi, — deydi samarqandlik Bekzod Hamroyev. — Hozir davlat tomonidan bepul berilmoqda. Ayniqsa, o‘lchovi to‘g‘ri olingan. Har yili almashtirishga ham to‘g‘ri kelmaydi.

Bir qaraganda odam baxtli bo‘lishi uchun u qadar ko‘p narsa kerak emasdek tuyuladi. Sababi, har bir odamga hayoti davomida boshiga tushgan sinovlarda yonida yelkadosh bo‘ladigan tizim yaratilsa va u odamlarga umid bera olsa, jamiyatni katta bir ishonch belbog‘dek birlashtirib turadi.

Shuningdek, strategiyada nogironligi bo‘lgan shaxslarni munosib ish bilan ta’minlash, bandligini ikki barobar oshirish, reabilitatsiya xizmatlari bilan to‘liq qamrab olish, “To‘siqsiz turizm” dasturi doirasida yiliga har bir viloyatdan nogironligi bo‘lgan ming nafardan kishining Samarqand, Buxoro va Xivaga bepul sayohatini uyushtirish ko‘zda tutilgan.

Bugungi islohotlar eng quyi tizimgacha yetib borayotir. Ayniqsa, mahallabay ishlash tizimining takomillashuvi aholi turmush tarzini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Masalan, ijtimoiy xodim mahallani besh qo‘lday bilishi kerak. Hududda qancha kishi yashashi, bandligi, ijtimoiy ahvoli, turmush darajasi haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lishi zarur. Qisqasi, ularning haq-huquqlarini himoya qilib, davlat tomonidan kafolatlangan xizmatlarni olishiga ko‘maklashadi. Ayni paytda ular og‘ir vaziyatga tushgan oilalar muammolarini o‘rganish bilan cheklanib qolmaydi. Balki mana shunday vaziyatdan chiqib ketish uchun xonadonlarning kuchli jihatlarini o‘rganadi, qo‘llab-quvvatlaydi. Bunday yondashuv insonlarga ulkan ishonch va tuganmas quvvat beradi. Ishonch orqali harakatga kelgan kishi esa jamiyat hayotida faol ishtirokchi bo‘ladi.

Ijtimoiy himoyaga muhtojlarning jamiyatda faol bo‘lishiga ham qulay imkoniyat yaratilmoqda. Xususan, joriy yil 20-fevralida davlatimiz rahbari raisligida o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida budjet tashkilotlariga 20 ming, banklarga 1000 nafar nogironligi bo‘lgan shaxsni ishga joylashtirish vazifasi yuklatilgan edi. Buning amaldagi ijrosi sifatida hozir 41 mingga yaqin bo‘sh ish o‘rni haqida e’lon berilgan. Ish o‘rni uchun tanlovda nogironligi bo‘lgan 11,7 ming kishi ishtirok etmoqda. Bo‘sh ish o‘rinlarining 4,9 mingtasi bo‘yicha suhbat jarayoni davom etyapti.

Mazkur raqam va misollarni bejiz keltirmadik. Tasavvur qiling, ijtimoiy himoyaga muhtoj birgina insonni ish bilan ta’minlash ortidan uning topish-tutishiga ko‘z tikib turgan qanchadan-qancha qorako‘zlar ko‘ngliga shukuh kiradi. U daromadga ega bo‘lishi ortidan bolalarini munosib joyda o‘qitish imkoniga ega bo‘ladi. Farzandlar kamolga yetib, yurt manfaati yo‘lida xizmat qiladi. Shu ma’noda, birgina insonning yutug‘i butun jamiyat muvaffaqiyatidir.

Muhimi, bu raqamlar amalda o‘z ifodasini topmoqda. Ijtimoiy himoyaga muhtoj odamlar o‘zgalar ko‘ziga bechorahol emas, balki ushbu jamiyatning, yurtning kelajagi yo‘lida faol odimlayotgan insonlar sifatida ko‘rinyapti. Ular ham yurt taqdiriga to‘la daxldor ekanini his etmoqda. Chinakam hur, ozod odamning timsoli bundan ortiq bo‘lmaydi, nazarimda.

Ko‘pincha faqat bizning mahsulotlar chetdan qaytariladi, bizdan ham sifatsiz import mahsulotlar qaytariladimi, degan e’tirozli savollar paydo bo‘ladi. Albatta, bojxona postlarida bunday amaliyot bo‘lib turadi. O‘zbekiston talabiga javob bermaydigan, muvofiqlik sertifikatini olmagan mahsulotlar qaytariladi yoki tegishli tartibda yo‘q qilinadi.

YANGI O‘ZBEKISTON

2024-yil 31-iyul, 152-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

Dolzarb mavzu

EKSPORTDAGI MUAMMOLAR

“O‘qlangan” mahsulotlardan qachon voz kechamiz?

Boshlanishi 1-betda

Umuman, mamlakatimiz iqtisodiyotini yangi bosqichga olib chiqish uchun eksportni yiliga kamida 30 foiz oshirib borish zarurligi belgilangan. Maqsad aniq qo‘yilgani yaxshi, albatta. Ammo kutilgan natijaga erishish bir tekis bo‘lavermaydi. Sohada muammolar ham, eksportchi tadbirkorlarni qiynab kelayotgan masalalar ham yo‘q emas. Davlatimiz rahbarining tadbirkorlar bilan navbatdagi ochiq muloqoti oldidan ishbilarmonlar shu yo‘nalishdagi muammolarni o‘rtaga tashlab, qator tashabbuslarni ilgari suryapti. **O‘zbekiston eksportchilar uyushmasi raisi Yorqin MALIKOV** bilan sohadagi dolzarb masalalar, hamon eksport deganda so‘z ochiladigan og‘riqli nuqtalar hamda ularning yechimlari haqida suhbatlashdik.

— Muammolarga to‘xtalishdan oldin mamlakatimizda eksport qachondan rivojlana boshladi, degan savolni o‘rtaga tashlasak. Bu 2017-yildan yurtimizda konvertatsiya tizimi ochilganidan keyin ro‘y berdi. Ya’ni valyuta almashinuvi bilan bog‘liq imkoniyatlar keng ochilishi bevosita eksportga e’tiborni oshirdi. Qolaversa, O‘zbekiston o‘sha yillardan barcha davlatlar uchun eshiklarini ochib, do‘stona aloqalarni o‘rnatish barobarida barcha sohalarda jadal islohotlar amalga oshirila boshlandi. Yurtimizda ishlab chiqarish quvvatlari ko‘paydi. Bularning bari bir-biriga bog‘liq holda eksportni asta-sekin rivojlantirdi. Ana endi ish bor joyda kamchilik ham bo‘ladi. Eksport qaysidir ma’noda biz uchun yangi soha edi va uni yo‘lga qo‘yib olish davrida muammolar yuzaga kelayotgani tabiiy jarayon. Asosiysi, bu muammolar birin-ketin yechib borilyaptiki, yildan yilga eksportyorchilarga keng imkoniyat va qulayliklar yaratib berilmoqda.

Eksportni yiliga 30 foiz oshirish imkoniyatimizga kelsak, bunga erishish mumkin. Oxirgi yillardagi o‘sish ko‘rsatkichlari buni tasdiqlayapti. Masalan, birgina eksport geografiyamizni olaylik, 2016-2017-yillarda taxminan 40-50 ta davlat bilan eksport yo‘nalishida ishlagan bo‘lsak, hozirgi kunga kelib, mamlakatimizning doimiy eksport qiladigan davlatlari soni 160 dan oshdi. Agar bir marta bo‘lsa-da eksport qilgan davlatlarni ham qo‘shsak, 190 taga yetadi. Biz bu orqali mahsulotlarimizni sotish jarayonida xorij tajribasini ham o‘rganib, o‘zimizda tatbiq qilyapmiz. Hozir tadbirkorlarimizning eksport borasidagi tajribasi ancha oshgan. Muammolarni ham ko‘rib, bilib, birgalikda yechim izlashga intilyapmiz. Joriy yil 18-mart kuni davlatimiz rahbari raisligida o‘tgan videoselektor yig‘ilishida eksportchilar o‘z muammolarini ochiq aytdi. Prezidentimizning bu yilgi tadbirkorlar bilan ochiq muloqotiga tayyorgarlik ko‘rish jarayonlarida ham takliflar, tashabbuslar to‘planyapti. Ishbilarmonlarni qiynayotgan eng dolzarb masalalar, albatta, o‘rtaga tashlanadi. Maqsad ularni yanada qo‘llab-quvvatlashdir.

— Milliy mahsulotlarimiz noan’anaviy bozorlarga chiqayotgani rost. Ammo umumiy eksportning asosiy qismi haligacha o‘sha o‘zimiz bilgan 4-5 ta bozorga to‘g‘ri kelyapti. “GSP+” tizimiga a’zo bo‘lganmiz, Yevropa bozoriga yo‘l ochiq, bu qo‘shimcha 65 dan ortiq davlat degani. Lekin nega haligacha bu tizim imkoniyatlaridan yetarlicha foydalana olmayapmiz?

— Doimiy eksport bozori, deb aytayotganingiz, mamlakatimizning top eksport davlatlari hisoblanadi. Bunday bozorlar har bir davlatda bo‘ladi. Ya’ni o‘sha mamlakatlarga boshqalarga nisbatan ko‘proq mahsulot eksport qilinadi. Bizning eksportda hozirgi kunda Rossiya, Xitoy, Qozog‘iston, Turkiya yetakchilik qilyapti.

Rossiya bozori haqida gapirsak, u bizga azaldan tanish. Ularning talablarini ancha yaxshi bilganimiz bois, eksportda deyarli muammolar bo‘lmaydi. Xitoy ham keyingi yillarda yirik importchilarimizdan biriga aylandi. Avvallari biz bu diyordan asosan, mahsulot xarid qilgan bo‘lsak, hozir ularga sotyapmiz. Keyingi yillarda Xitoyga eksport qilinayotgan oziq-ovqatlarimiz turi 22 taga yetdi, 2018-yilgacha 10 tadan oshmagan. O‘zaro savdo hajmi keyingi uch yilda jadallashib, eksportda mahsulot turi ham kengayib boryapti. Turkiya bozori ham biz uchun manfaatli. Ular mahsulotlarimizni asosan, qoplab oladi va qayta ishlab, Yevropaga eksport qiladi. Bir tomondan, bu bizga qulay, katta hajmda mahsulot sotamiz.

Umuman, mazkur davlatlar bilan savdo hajmi yuqori ekani ulardan chiqib keta olmayapmiz, degani emas. Eksportda doimiy xaridorlar bo‘lishi shart va tabiiy.

Noan’anaviy bozorlarga kelsak, ularga siz ta’kidlagan “GSP+” dasturi asosida kiramiz. Bu Yevropa Ittifoqiga kiruvchi 28 ta davlatni o‘z ichiga olib, ularning umumiy savdosi taxminan 270 milliard dollarni tashkil qiladi. Markaziy Osiyo davlatlari orasida O‘zbekiston va Qirg‘iziston ushbu tizimga kirgan. Bu orqali yurtimiz Yevropaga 6200 turdagi tovarlarni bojsiz olib kirish huquqiga ega. Yana uch ming turdagi tovarga boj to‘lovlarida 50 foizli chegirma beriladi. Bu, haqiqatan, juda katta imkoniyat.

Ammo o‘tgan yilgi tahlillarimizga ko‘ra, mazkur tizim imkoniyatlaridan unumli foydalana olmaganmiz. Faqatgina to‘qimachilik sanoatida tizim manfaatli xizmat qilgani ko‘rindi. Buning hisobiga tarmoqdagi eksport hajmi jadal o‘smoqda. Xususan, joriy yilning besh oyida mamlakatimiz dunyoning 55 ta davlatiga qiymati qariyb 1,3 milliard dollarlik mahsulot sotdi.

Qolgan sohalarda xalqaro tizim imkoniyatlaridan to‘liq foydalanilmagani boisi mahsulotlarning Yevropa standartlari talablariga javob bermagani bilan bog‘liq. Bunda tadbirkorlarimizni ayblab bo‘lmaydi. Chunki ular yillar davomida biz uchun nisbatan oddiy, sodda talablarga ega bo‘lgan qo‘shni davlatlarga eksport qilgan yoki bunga umuman imkoniyati bo‘lmagan. Xullas, eksport talablari borasida tajribasi yetarli emas. Biz ana shu jihatlarga e’tibor qaratib, ularga Yevropa standarti talablarini o‘rgatyapmiz.

Buni bilish va unga amal qilish, avvalo, tadbirkorlarning o‘zi uchun bir necha karra foydali. Masalan, bu yil gilosni Rossiyaga 3 dollardan, Xitoyga 6 dollardan, Janubiy Koreyaga 6 dollardan 12 dollargacha narxda eksport qildik. Yevropa davlatlari ham talabgor bo‘ldi, 20 dollardan narx qo‘ydi, faqat organik talablarga javob berishi sharti bilan. Ya’ni hozir Yevropa bozorida organik mahsulotga talab yuqori, uni yetishtirish esa katta mehnat, tajriba va xarajat talab etadi.

Biroq bu an’anaviy bozorlarning talabi oson, degani emas. Ularning ham shartlari o‘ziga yarasha. Eksportda raqobat juda kuchli va sifat bilangina xaridorlar sonini oshirish mumkin. Masalan, yurtimiz qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining taxminan 65 foizi Rossiya bozoriga eksport qilinadi. Ularda ikki tomon bor, biri marketlar tarmog‘i, ikkinchisi bozor. Har ikkisi ham o‘ziga yarasha talablarga ega. Supermarketlar mahsulotni laboratoriyadan o‘tkazib, so‘ng qabul qiladi. Ularning asosiy talabi mahsulot “o‘qlanmagan”, ya’ni ichidagi barcha mahsulot bir xil sifatda bo‘lishi kerak. Afsuski, ayrimlar doim ham bu talabni bajaravermaydi. Masalan, vodiyda gilos qutilarga to‘rt qator taxlanadi. Ba’zan birinchi qatorga juda chiroyli, sifatli mahsulot terilgan, tagidagi qatorlari esa sifatsiz bo‘ladi. Buni xaridor o‘sha vaqtda ko‘rmasa ham uyiga olib borgach payqaydi va do‘konga e’tiroz bildiradi. Importchi esa bundan norozi bo‘lib, kelasi safar biz bilan ishlashdan bosh tortadi. Rossiya bozorlarida odatda yurtimizdan borgan sotuvchilarning o‘zi mahsulot sotadi. Ko‘pincha xaridor topish uchun bir-biriga qarab narxni tushiradi. Natijada mahsulotlarimizning xorij bozorida narxi pastlab ketishiga olib keladi.

Shu kabi holatlar mamlakatning eksport imijiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi eng ayanchlisi. Afsuski, oxirgi uch yilda “o‘qlangan”, degan narsa juda rivojlanib ketdi. Bu nafaqat Rossiya, balki boshqa davlatlarga chiqarilayotgan mahsulotlarimizda ham ko‘zga tashlanyapti. Tadbirkorlarning bunday harakati xaridorlarda ishonchsizlik uyg‘otadi. Jahon amaliyotini o‘rganganimizda, bunday uddaburonlar boshqa davlatlarda ham borligiga guvoh bo‘ldik. Ammo ularda bunday holatlarga nisbatan qat’iy choralar belgilangan. Masalan, Turkiyada barcha eksportchilar bir uyushmaga yig‘ilib, har tomonlama qo‘llab-quvvatlanadi. Agar ularning birortasi mamlakat imijiga ta’sir ko‘rsatadigan ish qilsa, qora ro‘yxatga kiritiladi. Eronda ham jazolar jiddiy. Biz bu borada ma’muriy chora qo‘llashdan boshlash taklifini bildiryapmiz. Qolaversa, har bir viloyatda uzoq yillik tajribaga ega eksportchilardan iborat jamoatchilik kengashlarini tuzdik. Ularning o‘zi hududdagi nohalol tadbirkorlarni aniqlab, tushuntirish ishlari olib bormoqda.

— O‘zbekiston joriy yil boshida piyoz bo‘yicha dunyoning eng yirik 5 ta eksportchilari qatoridan joy oldi. Hatto mamlakatimiz yiliga 250 ming tonnagacha piyoz eksport qiluvchi dunyodagi 10 ta davlatdan biri sifatida e’tirof etildi. Ammo iyun oyida ichki bozorda piyoz narxi keskin tushib ketib, dehqonlar mahsulotini sota olmagani sababli dalalarda qolib ketgani shov-shuvlarga sabab bo‘ldi. Bunga nima to‘sqinlik qildi? Umuman, nega bizda mavsum yaqinlashayotgan pallada oldindan eksport choralari ko‘rilmaydi?

— Har bir sohada bo‘lgani kabi dehqonchilikda ham tahlil, bilim, me’yor bo‘lishi kerak. O‘zbekchilikda bir odat bor: o‘tgan yili qaysi mahsulot qimmat bo‘lsa, bu yil hamma o‘shani yetishtirishga harakat qiladi. Piyoz borasida ham shunday holat bo‘ldi. Siz keltirgan statistik ma’lumotda yurtimizning bu yilgi piyoz eksporti salohiyati 300 ming tonna ekani tahlil qilingan. Lekin mahsulot hajmi ko‘payib, 400 ming tonnadan oshib ketdi. O‘z-o‘zidan ichki bozorda narx tushdi. Eksportda chegara bor. Shunda ham maksimal darajada chetga sotdik. Hatto mahsulotni yetkazib berish uchun yuk mashinalari yetmadi. Piyozni Yevropa bozorlarigacha eksport qildik. Shvetsiya, Norvegiya, Estoniyaga 2,5 yevrodan pulladik.

Lekin shu o‘rinda yana bir jihat odamning dilini xira qiladi. Biz yangi bozorlar topishga intilyapmiz, ammo o‘zimizga bog‘liq bo‘lmagan omillar sabab ularni doimiy ushlab qola olmayapmiz. Masalan, ozarbayjonlik importchi bilan kelishuv qilinib, katta miqdordagi piyoz 14 kunda Dubayga yetib bordi, o‘zimiz kuzatib turdik. Mahsulot 5 kilogrammli qoplarda jo‘natildi. Boshida mahsulot sifatli yetib borgan, ammo keyingi partiyalarda yana o‘sha “o‘qlangan” holat. Tadbirkorlarimiz qopning o‘rtasiga quvur qo‘yib, chiroyli piyoz taxlaganda, ichiga maydalari solib yuborilgan. Buni ko‘rgan hamkor bizdan boshqa piyoz olmasligini aytdi. Ko‘ryapsizmi, shu birgina holat umumiy eksportga qanchalik ta’sir ko‘rsatyapti.

Mavsumda bozor topish choralariga kelsak, to‘g‘risini aytsam, shu paytgacha bu borada harakatlar bo‘lmagan. Bu eng katta kamchiliklarimizdan biri edi. Hozirgi kunga kelib esa O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sohasiga bosh qilib qo‘yilganidan keyin boshqa ko‘plab sa’y-harakatlar qatori bu mexanizmni ham asta-sekin yo‘lga qo‘yyapmiz. Ular bilan hamkorlikda eksport shtabi tashkil qildik. Shtab mahsulot yetkazib beradi, Eksportchilar uyushmasi uni xorijga sotish bilan shug‘ullanadi. Shtabdagi har bir xodim O‘zbekistonning kamida uchta davlatdagi elchixonalari bilan ishlayapti. Elchilar ko‘magida o‘sha davlatlardagi importchilar aniqlanib, ro‘yxati shakllantirilyapti. Ular tadbirkorlarga berib boriladi. Umuman, biz shunday tizim qildikki, har 20 kunda qaysi viloyatda qaysi mahsulot pishib yetilishi, turlarigacha ma’lumotlar bazasi shakllantirilib, tizimli zanjir hosil qilindi.

Mavsumiylik masalasida yana bir muammo ko‘zga tashlanadi. Ya’ni yurtimiz dehqonlari allaqachon yilda 2-3 martalab hosil yetishtira boshlaganiga qaramay, haligacha bizda mavsumiy, degan tushuncha bor. Masalan, aprel oyida gilos pishib yetilishi, mayda qulupnay terilishi, avgustda anjir mavsumiga kirishimiz hammamiz o‘rganib qolgan an’anaviylik. Ammo jahon bozorida mavsumiylik, degan tushunchaning o‘zi qolmagan. Davlatlar xaridorgir mahsulotlarni ketini uzmasdan, doimiy yetishtirish yo‘llarini topyapti. Masalan, xitoyliklar plyonka ostida kichik daraxtlarda gilos yetishtirib, doimiy eksportini yo‘lga qo‘ygan. Bizda ana shunday uzviylikning yo‘qligi bir qancha muammolarni tug‘dirib, doimiy mijozlarimiz bo‘lmasligiga olib keladi. Agar doimiy mijozlarimiz bo‘lsa, mahsulotlar qolib ketmasligiga ishonchimiz ham bo‘ladi. Shu bois, meva-sabzavot mahsulotlarini doimiy yetishtirish bo‘yicha xorij tajribasiga asoslangan takliflarni ishlab chiqyapmiz.

— Mahsulot yetishtirish oson emas. Dehqon buning uchun ming mashaqqat chekadi. Eksportchi ham unga katta xarajat qiladi. Ne umidlar bilan sotilgan mahsulotning biror sabab bilan qaytarib yuborilishi esa qanchalik alamli ekanini tasavvur qilish mumkin. Nega buning oldini olish uchun avvaldan harakat qilinmaydi? Umuman, mahsuloti qaytarib yuborilgan tadbirkorning huquqlari qanday himoya qilinadi?

— Avvalo, O‘zbekistondan chiqayotgan mahsulotning har biri shartnoma asosida eksport bo‘ladi. Shartnoma davlatlar o‘rtasida yoki xususiy importchi va eksportchi o‘rtasida tuzilgan bo‘lishi mumkin. Ko‘p hollarda xususiy ikki tomon o‘rtasida tuzilgan shartnoma sabab muammolar yuzaga keladi. Ayniqsa, mahalliy eksportchilarimiz hamkor tomonidan berilgan shartnomani o‘qimasdan, o‘qisa ham tushunmasdan ko‘r-ko‘rona imzolaydi. Ana shu omil hozirgi kunda jiddiy masalaga aylangan.

Masalan, yaqinda tadbirkorlarimizdan biri Yevropaga 20 tonna mayiz eksport qildi. U yerdagi bojxona laboratoriyasida tekshiruvdan o‘tkazilganida, mahsulot tarkibida oltingugurt va boshqa moddalar miqdori yuqori ekani aniqlangan. Eng qizig‘i, mahsulot bungacha yurtimizdagi laboratoriyada tekshiruvdan o‘tkazilib, xulosasi olingan va importchi uni qabul qilib, buyurtma bergan. Yevropa davlati bojxonasidagi xulosa asosida u mahsulotni olishdan bosh tortgan va tadbirkor ortga qaytarib olib kelishga majbur bo‘ldi.

Belarus bilan ham shunday hol kuzatildi. O‘rtada shartnoma tuzilib, piyoz va karam jo‘natilgan. Ularga boshqa hududdan arzon karam kirib kelgani uchun bizniki qimmat bo‘lib chiqdi va xaridor mahsulotimizni olishni rad etdi. O‘zbekistonlik tadbirkor hech narsa qila olmasdan qaytib kelaverdi. Biz ham hech qanday yordam bera olmadik. Chunki shartnoma shunday tuzilgan va unda barcha huquqlar importchida turibdi. Huquqiy savodxonlik yetishmasligi, o‘z haq-huquqini bilmaslik sababli shunday vaziyatlar uchrab turibdi.

Mahsulotlar qaytarib yuborilishining yana bir sababi bevosita tovar sifati bilan bog‘liq. Amaldagi tartibga ko‘ra, yurtimizda chetga chiqarilayotgan mahsulot bojxonaga borishdan oldin fulmigatsiya, ya’ni dorilash jarayonidan o‘tkaziladi. Shu tarzda mahsulot ichidagi zararkunandalar taxminan 6 soatda butunlay o‘ladi va xorijga zararsizlantirilgan holda boradi. Biroq ayrim tadbirkorlarimizning “shoshqaloqligi” sabab dorilash jarayoni ko‘pincha o‘tkazilmaydi. Natijada xorijda kasallik yoki zararkunanda borligi aniqlanadi. Bu mahsulotni ortga qaytarish uchun asos bo‘la oladi. Yaqinda Qozog‘istonga chiqarilgan 4 tonna pomidorda shunday holat kuzatildi. Qolaversa, shaftoli, o‘rik mahsulotlarimiz sifatiga ham e’tirozlar bo‘ldi. Vaholanki, eksportga mo‘ljallangan mahsulotlarni dorilash davlat tomonidan mutlaqo bepul amalga oshiriladi. Afsuski, shundan ham foydalanmaydigan tadbirkorlar bor. Shu bois, endilikda O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi bu masalada talabni qat’iy qo‘yib, nazoratni kuchaytirgan.

Ko‘pincha faqat bizning mahsulotlar chetdan qaytariladi, bizdan ham sifatsiz import mahsulotlar qaytariladimi, degan e’tirozli savollar paydo bo‘ladi. Albatta, bojxona postlarida bunday amaliyot bo‘lib turadi. O‘zbekiston talabiga javob bermaydigan, muvofiqlik sertifikatini olmagan mahsulotlar qaytariladi yoki tegishli tartibda yo‘q qilinadi.

Bularning hammasi tizimli jarayon. Ayniqsa, eksportda tizim ishlashi juda muhim. Yaqindan bu borada yangi mexanizmni yo‘lga qo‘yyapmiz. Dehqondan importchigacha bo‘lgan zanjir yaratildi. Agroko‘makchi mobil ilovasi yaratilib, importchi va eksportchilar haqida ma’lumotlar kiritilyapti. Bu ham katta imkoniyat.

Eksportbop mahsulot yetishtirishda yangi mexanizmlar joriy etilyapti. Masalan, Sirdaryo viloyatida yo‘lga qo‘yilgan “Sayxunobod tajribasi” shulardan biri. Ish avvalida hudud tarixi o‘rganildi. Kuzatuvlarimizga ko‘ra, mahalliy sharoitda ko‘proq qovun va oshqovoq yaxshi yetishtirilar ekan. Ushbu mahsulotlar eksportida oxirgi uch yilni tahlil qildik va yiliga 15 foizdan o‘sishni kuzatdik. Asosan, Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘izistonga sotilgan. Germaniya, Saudiya Arabistoni esa quritilgan oshqovoqqa xaridor ekan. Shulardan kelib chiqib, “Sayxunobod tajribasi”ning bir qismi sifatida 1800 kishiga 200 gektardan oshiq yer ajratilib, ekish uchun oshqovoqning eksportbop urug‘i olib kelindi. Hozir hosil asta-sekin yetilyapti.

Asosiysi, biz har bir talabgor bilan shartnoma tuzganmiz. Mas’uliyat ikki tomonda birdek bo‘ladi. Shunday huquqiy kafolatlangan shartnomalarni xorijlik xaridorlar bilan ham takomillashtirishga intilyapmiz. Shundagina biz eksportni shunchaki emas, balki tahlillar, bilim hamda xalqaro standartlar talablariga mos tarzda amalga oshirishni ta’minlaymiz.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri Iroda TOSHMATOVA suhbatlashdi.

Islohotlar amalda

DUAL TA’LIM qanchalik samara bermoqda?

O‘tkirjon ALIJONOV,
Professional ta’lim tizimini rivojlantirish departamenti boshlig‘i

Har bir mamlakatning taraqqiy etishida ta’lim tizimi muhim o‘rin tutadi. Yoshlarning biror kasb etagidan tutishi yoki mutaxassislikni egallashiga alohida e’tibor qaratiladi. Mamlakatimizda bu borada samarali ishlar qilinyapti. Navqiron avlod vakillarining qiziqishi qo‘llab-quvvatlanmoqda, ular uchun keng imkoniyat yaratilmoqda.

Davlatimiz rahbari o‘tgan yili 4-oktabrda professional ta’lim sifatini oshirish hamda aholini kasb-hunarga o‘qitish bo‘yicha yangi tashabbuslar taqdimoti bilan tanishar ekan, iqtisodiyotni rivojlantirishda professional ta’lim alohida o‘ringa egaligini ta’kidladi. Xususan, taraqqiy etgan davlatlarda o‘quvchilarning 75 foizigacha kasbiy ta’lim bilan qamrab olinganini qayd etdi.

O‘quvchilar uchun bir vaqtda ham o‘qish, ham ishlab pul topish imkonini beradigan dual ta’lim shakli joriy etildi. Bu tizim tufayli korxona va tashkilotlar hamkorligida yigit-qizlar o‘qitilmoqda. Shuningdek, yoshlarga 9-sinfdan keyin kasb-hunar maktabi, 11-sinfdan esa kollej va texnikumda turli mutaxassisliklar o‘rgatilmoqda.

“Ustoz-shogird” an’anasining mantiqiy davomi

Zaminimizda uzoq asrlardan buyon “ustoz-shogird” an’anasi mavjud va shu asosda yoshlar kasbga tayyorlab kelingan. Bugungi zamonaviy ta’lim tizimida aynan ushbu an’ana dual ta’lim shakli ko‘rinishida qo‘llanyapti, desak xato bo‘lmaydi. Bunday o‘qitish shakli “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunda alohida ta’lim shakli sifatida belgilandi va Prezidentimizning 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida 2021/2022-o‘quv yilidan boshlab professional ta’lim muassasalarida joriy etish bo‘yicha aniq topshiriq berildi.

Dual ta’lim o‘quvchilarga ta’limni o‘z yo‘nalishiga mos tashkilotda mehnat qilish bilan birga olib borish imkoniyatini beruvchi tizimdir. Bunda yoshlar 2-3 kun ta’lim muassasasida nazariy bilimlarni va 3-4 kun korxona va tashkilotlarda haqiqiy ish jarayonida amaliy ko‘nikmalarni egallaydi.

Mazkur ta’lim turini joriy etish masalasi mehnat bozoridagi kadrlar taqchilligini bartaraf qilish va yangi texnologiyalardan foydalana oladigan malakali kadrlar yetkazib berishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, korxonalarga kelgusida kadrlarni yana qayta tayyorlash uchun vaqt va resurs sarflanishining oldini oladi. Qisqasi, kerakli kadrni ish beruvchilar bilan birga tayyorlash tizimi, deyish mumkin.

An’anaviy ta’lim shaklida o‘quvchilar ta’lim muassasasida nazariy bilimlarni ko‘proq egallab, amaliyot qismini korxona va tashkilotlarda nisbatan kamroq soatda o‘taydi. Bu usulda tayyorlangan o‘rta bo‘g‘in kadrlarining amaliy tajribasi hozirga kelib, ishlab chiqarish korxonalarining talabiga har doim ham javob bermaydi.

O‘quvchi mehnati uchun haq oladi

Germaniya dual ta’lim vatanidir. Bu mamlakat tajribasi butun Yevropa va boshqa davlatlar uchun namuna bo‘lib xizmat qiladi. Germaniyada kasb-hunar ta’limi tizimi rivojlangan murabbiylik instituti, amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim va kadrlar tayyorlashda biznesning faol ishtiroki bilan ta’minlanadi.

Bu davlat o‘qitish tizimiga dual ta’limni bir necha yil oldin joriy qilgan. Qonunchilikda jarayon ishtirokchilari (korxona, o‘quvchi, ta’lim muassasasi)ning vazifa va

majburiyatlari aniq belgilab qo‘yilgan. Dual ta’limni tashkil etish va ish beruvchilarni jalb qilish Savdo-sanoat palatasi va tarmoq savdo palatalarining asosiy vazifalaridan.

Germaniyada 500 mingdan ziyod o‘quvchi dual ta’lim ishtirokchisi sifatida korxona va firmalar bilan shartnoma tuzadi. 75 foizga yaqin yigit-qiz o‘qishni yakunlagach, ish beruvchi bilan mehnat shartnomasi imzolaydi. Korxona tomonidan o‘quvchilarga malakali va maxsus sinovdan o‘tgan hamda sertifikatga ega ustoz biriktiriladi.

Yoshlarni kasbga yo‘naltirish va zarur tushuncha berish uchun 7-sinfdan boshlab o‘quvchilar korxonalarda yiliga 2-4 haftalik tanishuv (stajirovka) o‘taydi. Ular o‘zi borgan korxona va tashkilotlar faoliyati bilan tanishib, kasblar to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘ladi. Qiziqish bildirgan kasbi bilan shug‘ullanish uchun shartnoma tuzadi. O‘qish uchun ta’lim muassasasiga ushbu shartnoma bilan boshqa hujjatlarini topshiradi.

Dual ta’limning eng asosiy yutuqlaridan biri o‘quvchi bir vaqtning o‘zida ham o‘quvchi, ham xodim sifatida kasb o‘rganadi, mehnat qiladi. Albatta, mehnati uchun belgilangan miqdorda ish haqi oladi.

Bugun dual ta’limni rivojlantirish bo‘yicha xorijiy mutaxassislar jalb qilinmoqda, mahalliy mutaxassislar Germaniya, Shveysariya, Avstriya va boshqa davlatlarga tajriba o‘rganish maqsadida yuborilmoqda.

Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ) bilan birgalikda “O‘zbekistonda kasb-hunar ta’limi tizimini isloh qilish va modernizatsiyalash jarayonlarini qo‘llab-quvvatlash”, shuningdek, Shveysariyaning yurtimizdagi elchixonasi bilan hamkorlikda “O‘zbekistonda kasb-hunar ta’limi sohasidagi islohotlarni qo‘llab-quvvatlash” (VET4UZ), UNESCO tashkiloti bilan birga Yevropa Ittifoqi tomonidan moliyalashtirilayotgan “Qishloq joylarida ishga joylashish ko‘nikmalarini rivojlantirish” loyihalari doirasida ish beruvchilar talablari asosida dual ta’lim bo‘yicha yangi o‘quv dasturlari ishlab chiqildi.

Ushbu ta’lim shaklida o‘qitishning o‘ziga xos tomonlaridan yana biri shuki, ta’limning nazariy qismi o‘quv muassasasida, amaliy qismi — 70 foizi korxona va tashkilotlarda o‘tiladi. Shuningdek, ish beruvchilar dual ta’lim davomida eng yaxshi mutaxassislarni tanlab olishi va ishga qabul qilishi mumkin.

Bizga nima uchun zarur?

O‘zbekistonda 2021/2022-o‘quv yilidan boshlab ta’limning dual shakli joriy qilindi. Endi yoshlar kasb-hunar ta’limi muassasasida olgan nazariy bilimlarini bir vaqtning o‘zida amaliyotda qo‘llash imkoniga ega. Ushbu ta’lim shaklini O‘zbekistonda joriy etish va takomillashtirish bo‘yicha huquqiy asos yaratildi.

Mamlakatimiz mehnat bozoridagi real ehtiyoj, korxona va tashkilotlar, iqtisodiyot tarmoqlaridagi aniq ish o‘rinlari uchun mehnat faoliyati bilan ta’limni uyg‘unlashtirgan holda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning yangi mexanizmlari joriy qilina boshladi.

Dual ta’lim o‘quvchilarga ko‘plab imkoniyat beradi. Avvalo, yoshlar kasbiy mahorat va ko‘nikmaga ega bo‘ladi. Kasbiy tayyorgarlik davrida ish haqi oladi, ishlab chiqarishda kasb o‘rganadi. Asosiysi, o‘zi tanlagan soha bo‘yicha ishlab chiqarish muhitini o‘rganadi. Bularning bari keyingi ta’lim faoliyati uchun malakaga ega bo‘lish imkonini beradi.

Ish beruvchilar uchun ham dual ta’lim qulay va qator afzalliklarga ega. Masalan, keyinchalik ishga qabul qilishi mumkin bo‘lgan xodimni tayyorlashda ish beruvchilar bevosita ishtirok etishi mumkin. Ular o‘qish davrida qaysi nomzod ish beruvchiga mos kelishini baholab, aniqlab olish uchun yetarli vaqtga ega bo‘ladi. Bitiruvchilar malakasi yakuniy bosqichda ish beruvchilar tomonidan baholanadi. Ish beruvchilar ehtiyoji asosida dual ta’lim shaklida yil davomida qabul amalga oshiriladi. Ishchi-xodimlar qisqa muddatli kurslarda qayta tayyorlanadi. Ish beruvchilarning kadrlarga ehtiyoji asosida qabul parametrlari shakllantiriladi. Dual ta’lim shaklida ish beruvchilar o‘zi xohlagan va kutgan mutaxassisni tayyorlashda bevosita ishtirok etishi ham korxona va tashkilotlarga katta qulaylik tug‘diradi. Chunki ular dual ta’lim davomida eng yaxshi mutaxassislarni tanlab oladi va ishga qabul qiladi. Arzon ishchi kuchi va xodimlar qo‘nimsizligini boshqarish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

15 mingga yaqin o‘quvchi dual ta’lim olmoqda

2021/2022-o‘quv yilida dual ta’lim shakli bo‘yicha kollej va texnikumlarga maktabgacha ta’lim, temir yo‘l va qurilish kabi sohalarga 2 mingdan ortiq o‘quvchi qabul qilingan bo‘lsa, keyinchalik korxonalarning o‘zi uchun o‘rta bo‘g‘in kadrlar tayyorlashga ehtiyoji oshib borishi natijasida dual ta’lim shakli kengayib bordi.

2022/2023-o‘quv yilida professional ta’lim muassasalariga 4,5 mingga yaqin yosh dual ta’limga qabul qilindi hamda axborot texnologiyalari, yengil sanoat, qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish kabi sohalarda o‘rta bo‘g‘in kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi.

Ayni paytda 234 ta professional ta’lim muassasasidagi 15 mingga yaqin o‘quvchi 4 mingdan ziyod korxona va tashkilotda dual ta’lim shaklida saboq olmoqda. O‘quvchilarga korxona (tashkilot)larning malakali xodimlari biriktirilgan. Ular o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini bevosita ish joyida shakllantirmoqda. Shuningdek, ayni vaqtda avtomobillarga texnik xizmat ko‘rsatish, qishloq xo‘jaligi, maktabgacha ta’lim, yengil sanoat va xizmat ko‘rsatish kabi yo‘nalishlarda dual ta’lim ulushi oshib borayotganini ko‘rish mumkin.

Birgina misol: Andijon viloyatidagi Asaka agrotexnologiyalar texnikumi hamda “UzAvto Motors” aksiyadorlik jamiyati o‘rtasida dual ta’lim shaklida o‘rta bo‘g‘in kadrlar tayyorlash bo‘yicha hamkorlik o‘rnatilgan. Natijada bugun payvandlash texnologiyasi va jihozlari, avtomobillarni yig‘ish va sinash, mashinasozlik texnologiyasi va avtomobil transportiga texnik xizmat ko‘rsatish hamda ta’mirlash mutaxassisliklari bo‘yicha 500 dan ortiq o‘quvchi dual ta’lim shakli bo‘yicha o‘qitilmoqda.

Parvoz

QIZLARIMIZNING QADRI BALAND, YUZI YORUG‘ BO‘LAVERSIN!

Boshlanishi 1-betda

Aks holda, yaqinda Germaniyada xalqaro fan olimpiadasida g‘olib bo‘lgan Rayyona Ibrohimovaning quvonchiga minglab yurtdoshlarimiz sherik bo‘lmasdi. Ijtimoiy tarmoqlarda kuzatdik, olimpiada g‘olibasiga e’tiroflar, samimiy tilaklar yog‘ildi. Aksariyat yurtdoshlarimiz vatan bayrog‘ini ilm bilan yuksaklarga ko‘taradiganlar yanada ko‘paysin, dedi.

Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri Hilola Umarova Rayyona, uning onasi va ustozi bilan uchrashib, ulkan yutuq bilan samimiy tabrikladi. Andijon viloyati hokimi hududdagi iqtidorli yoshlar bilan uchrashuvi chog‘i olimpiadachi qizning muvaffaqiyati haqida g‘ururlanib gapirdi. Uni barcha ilmi toliblarga namuna qildi. Hokimning “Shu qizimni kutyapman. Tezroq kelsa, yuzma-yuz turib, erishgan yutug‘i bilan alohida tabriklagim kelyapti”, degan gaplari til o‘rganayotgan ko‘plab yoshlarga ham ko‘tarinkilik bergani aniq.

Biz ham Rayyonani hayotidagi ulkan natija bilan muborakbod etib, xalqaro olimpiadaga yetaklagan omillar yuzasidan suhbatga tortdik:

— Maktabda o‘zim bilmagan holda nemis tili sinfiga tushib qolganman. Birinchi bo‘lib shu chet tilni eshitganim uchunmi, yoqimli, jarangdor tuyulgan. Ota-onam ingliz tili sinfida bo‘lishimni istagan va 2-sinfda meni nemis tili sinfidan olishgan. Biroq ingliz tilini o‘rganishga u qadar ishtiyoqim bo‘lmadi. Yana o‘z sinfimga qaytdim. Adabiyot faniga ham mehrim bo‘lakcha bo‘lgan. Bu ehtimol ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi bo‘lgan onamning ta’siridir.

“Yosh kitobxon” tanloviga befarq bo‘lolmasdim. Shu tanlov sabab ko‘p kitob o‘qidim. O‘quvchilar o‘rtasida shunday tanlovlarni ko‘paytirish kerak ekan. Xususan, men ravon nutqqa, so‘z boyligiga “Yosh kitobxon” orqali ega bo‘ldim. Bobom “Nabiram kitob o‘qib, menga “Spark” olib beradi”, der edi. Faqat g‘alabaga intilardim. Biroq har gal marraga yetay deganimda, omadim kelmasdi. Ko‘nglim sira cho‘kkani, adabiyotga qiziqishim susaygani yo‘q. She’rlar mashq qilib turaman, hikoyalar yozaman. Ijodiy ishlarim gazetalarda chop etilishiga havasmandman.

Xalqaro olimpiadaga keladigan bo‘lsak, bu, albatta, o‘z-o‘zidan bo‘lmaydi. Shuningdek, ishtirokchi bo‘lish o‘ta og‘ir jarayon ham emas. Qat’iy maqsad, kuchli iroda bo‘lsa bas. Avvalo maktab olimpiadasidanoq faollikni qo‘lga olish kerak. O‘zim misolimda aytadigan bo‘lsam, maktabimizda faqat nemis tili o‘tilmaydi. Haftasiga 2 soat dars bilan esa yuqori natijaga erishib bo‘lmasligi aniq. Qo‘shimcha dars olish kerak bo‘ladi. Shuning uchun o‘quv kursida bilimimni mustahkamlaganman. Shu yil aprel oyida nemis tili bo‘yicha B2 darajani qo‘lga kiritganim buning samarasi deb bilaman.

O‘zimning nazdimda yaxshi tayyorlangan bo‘lsam-da, fan olimpiadasida maktabda ham, shahar bosqichida ham 2-o‘rinni oldim. Bor kuchimni yig‘ib, viloyat bosqichiga jiddiy kirishdim. Baribir 1-o‘rinni olishim kerak, degan orzum ro‘yobga chiqib, birinchilik nasib etdi. 10-sinf bo‘lganimiz uchun respublika bosqichi o‘tkazilmadi. Biroq maktabdagi ustozim barcha viloyat bosqichi g‘oliblari Toshkentdagi Gyote universitetida xalqaro nemis tili olimpiadasining milliy saralash bosqichida qatnashishi kerakligini aytdi. 16-fevral kuni aytilgan joyga yetib keldik. 13 nafar raqib bilan bellashib, g‘alabaga erishdim.

Germaniyaga maktabdagi nemis tili o‘qituvchim Muqaddas Qosimova bilan bordik.

Barcha xarajatlarimiz qoplab berildi. Yo‘l-yo‘lakay kuchli hayajon bo‘lsa-da, qo‘rquv yo‘q edi. Olimpiada jarayonida bir oz hadik paydo bo‘ldi. Chunki barcha ishtirokchilarning bilim darajasi menikidek va undan ham baland edi. Qanday bo‘lmasin, fikrimni, diqqatimni jamlashga harakat qilib, olimpiadada qatnashdim. Hayajonning eng kuchlisi g‘oliblar e’lon qilinayotganda boshlandi. 1-o‘rin sovrindori sifatida ism-familiyam e’lon qilinganida, quvonchdan qiyqirib yubordim. Yonimda avaylab olib yurganim — O‘zbekiston bayrog‘i dunyodagi eng go‘zal bayroq bo‘lib ko‘rindi. Boshimga ko‘tarib, sahnaga chiqqach ham bayroqni pastga tushirgim kelmadi. Kuchli hayajon sabab bayroq bilan yuzimni to‘sib olganimni ham sezmay qolibman. O‘sha lahzadagi ichki kechinmalarimni so‘z bilan ifodalashga ojizman.

Rayyonadan olimpiada g‘olibligi unga qanday mas’uliyatlar yuklaganiyu, maqsadlar, orzular o‘zani endi qay tomonga qarab ketishi haqida so‘radik:

— Nasib qilsa, 11-sinfni tamomlagach, o‘zimizning Andijondagi chet tillar institutida o‘qib, magistraturani Germaniyada davom ettirmoqchiman. Endigi oliy maqsadim — badiiy tarjimachilik yo‘lidan borish. Nemis tilidagi kitoblarni o‘zbek tiliga, o‘zbek tilidagi asarlarni esa nemis tiliga tarjima qilmoqchiman. Shunda adabiyotga muhabbatim ham, nemis tiliga mehrim ham namoyon bo‘ladi. O‘zbek va nemis yozuvchilarining eng go‘zal ijod namunalarini til orqali ko‘rsatib berish, kitobxonlar qalbidan o‘rin olish ham bir baxt, aslida. Shoir va yozuvchilari asarlarini nemis tiliga tarjima qilib, o‘zbek ijodkorlari nomini dunyoga tanita olsam, orzularimning ro‘yobi ana shu bo‘ladi.

Bir tilni o‘rganganda o‘sha xalqning madaniyatini ham o‘rganamiz, albatta. Shu ma’noda Rayyonaga nemis tilini o‘rganish nimalar bergani bilan qiziqdik:

— Azaldan nemischa punktuallik menga juda yoqadi. Germaniyada bo‘lgan kunlarimiz buni ularning hayot tarzida yaqqol ko‘rdim. Olimpiada jarayonida ham o‘ta mas’uliyatlilikka guvoh bo‘ldik. Endilikda o‘zim ham berilgan vazifani vaqtida bajarishga, aytilgan joyga kelishilgan soatda borishga, umuman, har tomonlama mas’uliyat sezishga harakat qilyapman. Shuningdek, nemis tilini o‘rganish Germaniya madaniyatiga oid boshqa jihatlarni ham yaqindan bilib olishimga xizmat qilyapti.

Suhbatimiz so‘nggida Rayyona o‘zi kabi tengdoshlari va ularning ota-onalariga yuzlanib, bunday dedi:

— Aksariyat ota-onalarga aytishni istardimki, qiz farzandlarini oliy ta’limdan cheklamasin. Aksincha, ular o‘qish istagida bo‘lgan qizlarining olima bo‘lishiga yo‘l ochib berishlari shart. Ilm jins tanlamasligini yaxshi tushungan ota-onalar shundoq ham qizlariga sharoit yaratib beradi. Prezidentimiz aytganidek, qiz bolani o‘qitish butun jamiyatga foyda keltirishini hamma ota-onalar tushunishi kerak.

Xalqaro olimpiadadagi yutug‘imdan ota-onamning ko‘zida qalqqan quvonch yoshi barcha ota-onalarga nasib etishini istayman. Ko‘proq kutubxonalar, buk-kafelar tashkil qilinsa, natijalarimiz bundan-da yaxshi bo‘ladi. Chunki men adabiyot orqali nemis tilini, nemis tili tufayli adabiyotni topdim. Zero, olimpiadada nafaqat nemis tilini bilish darajamiz emas, balki tariximiz, adabiyotimiz, milliyligimizni qanchalik bilishimiz, nutqimiz ham hisobga olindi.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri Munojat MO‘MINOVA yozib oldi.

Diyora Keldiyorovaning Parijda o‘tayotgan yozgi olimpiadadagi ilk kurashida ko‘rsatgan shiddati, kuchi buning yaqqol misoli bo‘la oladi. Yaponiyalik sportchi mag‘lubiyatdan so‘ng ovozining boricha dodladi. O‘zini qo‘yarga joy topa olmay yig‘ladi. Muxlislarni esa Diyoraning yuz-ko‘zidagi vajohat, o‘ljaga tashlangan arslonnikidek harakati hayratga soldi. Nega?

YANGI O‘ZBEKISTON
www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

Iftixor

Ulkan daryolar sokin oqadi. Ana shu sokinlik tubida shiddatli kuch bo‘ladi. Sirtdan qarasangiz, suv oqimi sezilmaydi. Ammo unga tushishingiz hamon oqimning kuchini his etasiz. Millat, jamiyat ham odatda o‘sha daryo kabi sokin bo‘ladi. U har kuni ko‘kragiga urib, boshqalarga o‘zini ko‘z-ko‘z qilavermaydi. Lekin shunday vaziyatlar bo‘ladiki, u o‘sha kuchini, shiddatini namoyon etadi.

SOKIN DARYONING JO‘SHQIN OQIMI

Diyora Keldiyorovaning Parijda o‘tayotgan yozgi olimpiadadagi ilk kurashida ko‘rsatgan shiddati, kuchi buning yaqqol misoli bo‘la oladi. Yaponiyalik sportchi mag‘lubiyatdan so‘ng ovozining boricha dodladi. O‘zini qo‘yarga joy topa olmay yig‘ladi. Muxlislarni esa Diyoraning yuz-ko‘zidagi vajohat, o‘ljaga tashlangan arslonnikidek harakati hayratga soldi. Nega?

Yaponiyalik sportchi musobaqadan avval g‘alaba qozonishiga shubha qilmagan. Chunki o‘ziga ishonch bilan maydonga tushdi. Ammo birdan daryo oqimining shiddatiga duch keldi. Bu Keldiyorovaning vajohatida yaqqol ko‘zga tashlandi. Bunday vaqtda har qanday kuchli odam ham hissiyotini yashirib tura olmaydi. Diyoraning shiddati o‘sha oqim kuchidan sira kam emasligi keyingi kurashlarda oydinlashdi. Natija quvonarli, Keldiyorova O‘zbekiston tarixida yozgi olimpiadada oltin medal olgan ilk ayol sportchi sifatida qoladigan bo‘ldi.

Diyora intervyusida ham, Prezidentimiz bilan telefon orqali muloqotida ham yutug‘ining sababi yurtimizda yaratilgan imkoniyatlar, unga ko‘rsatilgan e’tiborda ekanini aytdi. Uning gaplarida sira mubolag‘a yo‘q edi. Masalan, Diyora 12 yoshida ilk marotaba O‘zbekiston chempioni bo‘lgan. Oradan to‘rt yil o‘tib, dzyudo bo‘yicha yoshlar o‘rtasidagi Osiyo chempionatida bronza medalni qo‘lga kiritgan. Uning ana shu kichik g‘alabalari munosib qadrlangan. Zulfiya nomidagi davlat mukofoti, “Kelajak bunyodkori” medali bilan taqdirlangan. Turkiyaning Antaliya shahrida dzyudo bo‘yicha “Katta dubulg‘a” turkumiga kiruvchi turnirda oltin medal sohibasi bo‘lgach, unga “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan sportchi” unvoni berilgan.

Polvon qiz bildirilgan ishonchni oqlash uchun tinimsiz mehnat qildi va Parijda tarixiy g‘alabani qo‘lga kiritdi. Shuning o‘ziyoq yurtimizda yoshlarga qaratilayotgan e’tibor natijasidan dalolat!

Biror mavzuda mulohaza yurita boshlasam, negadir “Alpomish” dostonidagi epizodlar ko‘z oldimga kelaveradi. Haqiqatan, u juda katta epos. “Alpomish” butun millatimiz etno tarixi va madaniyatini o‘zida jamlagan. Shuning o‘ziyoq millatimizning tafakkuri nechog‘liq ulug‘vorligini ko‘rsatadi. Chalg‘idim. Gap Diyoraning g‘alabasi haqida edi...

Bu yutuq tom ma’noda xalqimiz g‘alabasi bo‘ldi. Ko‘cha-ko‘yda odamlarning gapiga quloq tutib, ijtimoiy tarmoqlardagi fikrlarni o‘qib, bunga amin bo‘ldim. Yurtdoshlarimiz bir ovozdan Diyorani millat qahramoni, To‘maris avlodi, deya alqadi. Ayni paytda yaponiyalik sportchi Uta Abega dalda berib, rahmat ham aytmoqda. Bu jamiyatimizda insoniylik, bir butun xalq bo‘lishga intilish kuchli ekanini ko‘rsatadi. Bunga javoban Abe Diyoraning oltin medalini garchand ko‘zida yosh bo‘lsa ham olqishladi. Aynan shu munosabat, jamiyatning yakdil fikri sabab “Alpomish”ni esladim.

Davlatimiz rahbari telefon orqali muloqotida Diyoraga o‘zbek ayoli, sevimli qizlarimiz nimalarga qodir ekanini dunyoga namoyish etgani uchun tashakkur aytdi. Ha, opa-singillarimiz beqiyos qudratga ega. Faqat ularga imkon, ishonch berilsa, bas. Shunda

ular Diyora kabi jamiyatning yetakchi kuchiga aylanadi.

Buni “Alpomish” dostoni qahramonlari ham tasdiqlaydi. Dostonda ikki qiz Hakimbekni harakatga keltiruvchi kuch sifatida o‘rtaga chiqadi. Birinchisi — singlisi Qaldirg‘och. Alpomish bir xotin deb olti oylik yo‘l bosamanmi, deya Barchin yuborgan xatga beparvo qaraganida Qaldirg‘och bir og‘iz gapi bilan akasini o‘rnidan qo‘zg‘aydi. Shu tariqa Alpomish el, vatan oriyatini o‘zga yurtda himoya qiladi.

U qalmoq elida raqib bilan kurashayotganida sustkashlikka yo‘l qo‘yadi. Shunda Barchinoy kurashni bilmasang, davraga o‘zim chiqayinmi, deydi. Er yigit uchun bundan og‘ir gap bormi?! Bundan oriyati qo‘zigan Alpomish vajohat bilan raqibiga tashlanib, qo‘li baland keladi. Barchinoyning o‘zim chiqayinmi, deyishida ham mazmun bor edi. Alpomish kelgunicha qalmoq alplaridan birini kurashda yer tishlatgandi. G‘anim Barchinoyning o‘toviga bostirib kirganida alpni yelkasidan oshirib tashlaydi. Tahlil etilsa, Alpomishni qahramon qilgan singlisi va yori, xalqimizning asl farzandi bo‘lgan qizlari edi!

Agar doston asosida yana bir film ishlansa, shu sahnani Diyoraning yaponiyalik sportchi bilan kurashi asosida olish mumkin. Keldiyorovaning o‘sha holati, yuz ifodasi, vajohati Barchinoyning timsolini to‘la ochib beradi.

Ha, opa-singillarimiz, onalarimiz doim mana shunday yetakchi kuchga ega bo‘lgan. Diyora esa qonida oqayotgan o‘sha jo‘shqin daryoni ko‘rsata oldi. U kabi opa-singillarimiz esa ko‘plab topiladi.

Masalan, shu yil Yoshlar kuni arafasida davlatimiz rahbari mamlakatimizning navqiron avlodi bilan muloqot qildi. O‘shanda Sabina Nabiyeva erishgan yutuqlari haqida aytib berdi. U maktabda o‘qib yurganidayoq ishlashga majbur bo‘lgan. Shunga qaramay, o‘qib-o‘rganishdan to‘xtamagan. Onasi qiyin vaziyatga qaramay, qizining o‘qishi uchun pul sarflagan. Keyinchalik yaratilgan imkoniyat sabab oilaning xarajati davlat tomonidan qoplab berilgan.

Mana shu ishonch va imkoniyat Sabina kabi ko‘plab yoshlarni harakatga keltirgani ham rost. Ular timsolida xotin-qizlar jamiyatning yetakchi kuchiga aylanmoqda.

Eposni bekorga eslamadik. Millat qonidagi kodlar o‘zgarmaydi. Faqat muayyan vaqtlarda turg‘unlik sezilishi mumkin. Ammo bu aslo inqiroz emas. Chunki imkon va fursati yetishi hamon qondagi jo‘shqinlik yuzaga chiqaveradi. Mamlakatimizda xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilayotgan e’tibor jamiyatimizdagi shiddatli o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda.

Yana bir misol. Shu kunlarda ilmga tashna singlimiz Rayyona Ibrohimova Germaniyada o‘tkazilgan xalqaro fan olimpiadasida g‘olib bo‘ldi. To‘g‘ri, kim uchundir til bilish, muayyan o‘quv muassasasi tashkil etgan musobaqada g‘olib bo‘lish unchalik katta yutuq emasdir. Ammo til bilish ham oddiy hodisa emas. Ulug‘ ajdodimiz Mahmud Zamaxshariy shunday bilimdonligi bois, arab tili grammatikasini yozgan edi. Hozirgacha o‘sha qo‘llanma asosidagi darsliklar orqali arablar o‘z tilini o‘rganadi. Shu bois, Rayyonaning yutug‘i uning kelgusi zafarli yurishlarida dalda bo‘ladi. Xuddi Diyora kabi dunyoni o‘ziga qarata oladigan yutuqlarni qo‘lga kiritadi. Nasib etsa, o‘sha vaqtda dunyo hamjamiyati yana bir bor O‘ZBEK degan sokin daryoning jo‘shqin oqimini his etadi.

Bugun dunyo xalqlari bir qancha muhim savolga javob izlamoqda: qanday qilib o‘zlikni saqlab qolamiz? Qay yo‘sin ish tutsak, xalq farovonligi, kelajak kafolatiga ega bo‘lamiz? Bunday so‘roqlar bizga ham begona emas. Chunki hozirgi global dunyoda bu savollarga javob topish juda muhim.

Diyora tufayli dunyo arenasida bayrog‘imiz baland ko‘tarilib, madhiyamiz yangradi. O‘sha hayajonli lahzalarda delegatsiya a’zolaridan biri Ravshan Ermatov tuyg‘ularini ko‘zida quvonch yoshi bilan qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib, madhiyaga jo‘r bo‘lish orqali ifoda etdi. U kabi har birimiz shunday quvonchli tuyg‘uni his etdik.

Nazarimda, yuqoridagi savollarga shu holat javob bo‘la oladi. Kelajak kafolatini jamiyat birdamligi, qonimizdagi ezgulik, vatanparvarlik kodlarini jonlantirish orqali ta’minlash mumkin. “Bir bo‘lsak — yagona xalqmiz, birlashsak — Vatanmiz!” degan hayotbaxsh shior zamirida ana shunday hayotiy haqiqat bor.

Maqolani yozib tugatishim hamon Yaponiyaning Maydzuru shahri hokimi Kamoda Akitsu Diyora Keldiyorovaga maktub yozgani haqidagi xabarni o‘qidim. Yaponiyalik siyosatchi yurtimizda sportga qaratilgan e’tibor, yutuqlarni va ikki davlat o‘rtasidagi do‘stona aloqalarni e’tirof etgan. Ahamiyatlisi, Diyora Tokio — 2020 olimpiada o‘yinlariga tayyorgarlik asnosida aynan Tokioda o‘tkazilgan o‘quv-mashg‘ulot yig‘inlarida ishtirok etgani, bu yaponiyalik dzyudo ixlosmandlariga cheksiz faxr bag‘ishlaganini bildirgan.

Albatta, Yaponiyaning o‘ziga xos dyuzdo maktabi bor. Qahramonimiz shu maktabda oz bo‘lsa ham ta’lim olgan. Qahramonlikning belgilaridan biri esa, ustozidan o‘tadigan shogird bo‘lish va shu sabab barcha xalqlar uni birdek aziz sanashidir.

Boboravshan G‘OZIDDINOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasi



MAHALLALARDAGI SPORT MAYDONCHALARI

Sog‘lom turmush tarziga xizmat qilmoqda

Aholini sog‘lom turmush tarziga keng jalb qilish, eng avvalo, jamiyatning kichik bo‘g‘inlari, ya’ni mahallalarda sport infratuzilmasini rivojlantirishni taqozo etadi.

Zohid SHUKUROV,
Sport vazirligi bosh mutaxassisi

Mamlakatimizning barcha hududida, hatto eng olis tumanlarda ham zamonaviy va foydalanish uchun qulay sport maydonlari, stadionlar barpo etilayotgani o‘z samarasini berayotir. Mahallalardagi sog‘lom muhit, hududiy musobaqalar, “Besh tashabbus olimpiadasi” ta’sirida sportsevarlar safi kengayib bormoqda. Keyingi ikki yilda sport bilan doimiy shug‘ullanadiganlar soni ikki barobar ko‘paygani fikrimizni tasdiqlaydi. Shu vaqt davomida yurtimiz mahallalarida jami 969 ta sport maydonchasi qurilib, aholi ixtiyoriga topshirildi. Natijada bir kunda 159 ming 816 kishining ommaviy sport bilan shug‘ullanishi uchun sharoit yaratildi.

“Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida o‘tkazilgan sport musobaqalari natijalari, aholining talab va istaklarini inobatga olgan holda 3 turdagi sport maydonchalari tashkil etilmoqda. Ulardan biri universal sport maydonchasidir. Ularda bir kunda 160 kishi sportning 5 turi — futbol, voleybol, basketbol, gandbol va badminton bilan shug‘ullanish imkoniyatiga ega.

Bir kunda 136 sportchini o‘z bag‘riga oladigan vorkaut maydonchalari barpo etilayotgani esa aholi sog‘lom turmush tarziga hissa qo‘shishi barobarida yoshlarning bo‘sh vaqti mazmunli o‘tishiga ham sabab bo‘lyapti. Stritbol-vorkaut sport maydonchasida esa bir kunda 184 sportchi bir vaqtning o‘zida ham vorkaut, ham stritbol bilan shug‘ullanishi mumkin.

Barpo etilgan sport maydonchalarida quyosh panellari o‘rnatildi, atrofi metall panjara o‘rniga ipli himoya to‘rlari bilan o‘raldi va yer maydoniga qayta ishlangan shina mahsulotidan olingan rezina qoplamasi yotqizildi.

Bularning barchasidan eng chekka hududlarda ham aholini sog‘lom turmush tarziga jalb qilish, ommaviy sport bilan rivojlanishi uchun yetarli shart-sharoitlar yaratish pirovard maqsad qilingan.

Infratuzilmasi nisbatan rivojlanmagan joylarda bunday obyektlar barpo etilayotgani ommaviy sportning yanada rivojlanishi, ayniqsa, mahalla ahli, xususan, yoshlarning katta qiziqishi va xursandligiga sabab bo‘ldi. Aholi tomonidan o‘z mahallasi hududida sport maydonchasi barpo etilishi yuzasidan ko‘plab murojaatlar va tashabbuslar bildirildi.

Joriy yildan boshlab Sport vazirligi mablag‘lari hisobidan barpo etiladigan sport obyektlari va inshootlarining kamida 30 foizi “ERP Sport” yagona elektron boshqaruv tizimi orqali ushbu hududda yashovchi aholi tomonidan ovoz berish yo‘li bilan aniqlanishi ko‘zda tutilgan.

Aholining talabi va xohishiga ko‘ra, “Tashabbus.Sport” loyihasi ishlab chiqildi hamda 2024-yil 10-31-may kunlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi har bir tuman (shahar)ning eng ko‘p ovoz to‘plagan bittadan mahallasida vorkaut-stritbol sport maydonchalari qurish bo‘yicha tanlov o‘tkazildi.

Tanlov natijalariga asosan, respublikamizning har bir tumanida eng ko‘p ovoz to‘plab, g‘olib topilgan mahallalar hududida 211 ta sport maydonchasi 2024-yilda quriladigan sport maydonchalarining manzilli ro‘yxatiga kiritildi. Joriy yil davomida respublika bo‘ylab jami 400 ta sport maydonchasini barpo etish rejalashtirilgan.

Ayni paytda manzilli ro‘yxatga kiritilgan mahallalarda sport maydonchalarini tashkil etish bilan bog‘liq tadbirlar, jumladan, yer ajratish ishlari yakuniga yetkazilib, qurilish boshlab yuborilgan.

Shu bilan birga, mahallalar hududida barpo etilgan sport maydonchalarini saqlash uchun Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Jamoat ishlari jamg‘armasidan bittadan shtat ajratilishi belgilangan. Bu esa mahallada yana bir ishsiz fuqaroning bandligini ta’minlashga zamin yaratadi.

Bunday keng ko‘lamli sport maydonchalari qurilishi O‘zbekistonda sog‘lom va sportchi avlodni tarbiyalash, jahon maydonlarida mamlakatimiz sharafini munosib himoya qilish imkonini beradi, nafaqat aholi salomatligini mustahkamlash, balki yurt sharafini xalqaro arenalarda baland ko‘tara oladigan iqtidorli sportchilarni kashf etishga zamin yaratadi.

— Sport vazirligi tomonidan tashkil etilgan “Tashabbus.Sport” loyihasida g‘olib bo‘ldik, — deydi Buxoro tumanidagi “Amirobod-Guliston” MFY raisi Q.Odilov. — Endi mahallamizda ham vorkaut maydonchasi quriladi. Bolajonlarimiz sport bilan shug‘ullanishi uchun sharoit yaratilishi bilan birga, mahallada yana bir ishsiz fuqaroning bandligi ta’minlanishiga erishiladi. Avval bu kabi loyihalar bo‘lmagan, yangi tashabbuslar bizni faqat quvontiryapti.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida mahallalarda 400 ta sport maydonchasini barpo etish vazifasi belgilangan. Bunda “Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida g‘olib va sovrindor bo‘lgan hamda hududida sport infratuzilmasi yo‘q mahallalar ro‘yxatini shakllantirish hamda qurish ishlarini boshlash, olis va chekka hududdagi mahallalarda sport infratuzilmasini rivojlantirish, shu jumladan, sport maydonchalarini bosqichma-bosqich barpo etish hamda bu orqali aholining sport bilan shug‘ullanish imkoniyatlarini yanada kengaytirish ko‘zda tutilgan.

Bajarilayotgan ishlar ana shu ezgu maqsad ro‘yobini ta’minlab, aholining hayot sifatini oshirishi, yosh avlodning har jihatdan sog‘lom va barkamol bo‘lib voyaga yetishiga xizmat qilishi shubhasiz.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Kolorpak” MCHJ mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 2588.
42368 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolorpak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O‘zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko‘chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Gulichehra Durdiyeva
Musahhih: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

O‘zA yakuni — 20:55 Topshirildi — 23:55